

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ESHMURATOVA DILDOR UROLOVNA

**INGLIZ RELIGIONIMIK BIRLIKLARINING FUNKSIONAL VA
STILISTIK XUSUSIYATLARI**

10.00.04 - Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtotreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук
(DSc)

The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Science (DSc)

Eshmuratova Dildor Urolovna

Ingliz religionimik birliklarining funksional va stilistik xususiyatlari3

Eshmuratova Dildor Urolovna

The Functional and Stylistic Features of English Religionymic Units31

Эшмуратова Дилдор Уроловна

Функциональные и стилистические особенности английских
религионимических единиц.....57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....62

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ESHMURATOVA DILDOR UROLOVNA

**INGLIZ RELIGIONIMIK BIRLIKLARINING FUNKSIONAL VA
STILISTIK XUSUSIYATLARI**

10.00.04 - Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Fil934 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Xajiyeva Feruza Melsovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Axmedov Oybek Saporbayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Sharipova Aziza Abdumanapovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "16" iyun soat 11³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro sh., M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (0365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A.2374 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "3" iyun kuni tarqatildi.

(2026-yil "3" iyun dagi 26-11 - raqamli reyestr bayonnomasi).



D.I. Xodjayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, dotsent

O.O. Bobokalonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

O.M.Fayzulloev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori [DSc] dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissaretatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida XX-asrning ikkinchi yarmidan alohida soha sifatida shakllanib ulgurgan onomatologiya yo'nalishidagi ilmiy izlanishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Mazkur jarayonda olimlarning salmoqli ulushi hisoblangan, lingvistika va din integrallashuvining mahsuli – religionimik birliklarning xolistik tahlilini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu asosda religionimik birliklarning turli jihatlarini tadqiq qilish, ularning morfologik, sintaktik va stilistik xususiyatlarini talqin qilish, jumladan, religionimik birliklarning lingvistik belgilari, leksik-semantik xususiyatlarini ochib berish, uslubiy xususiyatlarini aniqlash, zamonlar mobaynida turli jamiyatlarda ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni ta'minlovchi vosita sifatida ahamiyatli diniy birliklar, xalqlar va millatlarning madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan dinlarning jamiyatga ta'sirini o'rganish, diniy bag'rikenglikni oshirishdagi o'rnini qayd etgan holda, diniy birliklarning tadqiqi, madaniyat va milliylikni shakllantirishdagi muhim rolini anglash va ilmiy asoslash imkonini yaratadi.

Dunyo tilshunosligida o'tgan asrning so'nggi yillaridan boshlab jamiyatdagi mafkuraviy bo'shliq o'rnini to'ldirish maqsadida diniy tilni targ'ib qilish barobarida uni teolingvistika doirasida diniy nutq va kommunikatsiya jarayonlariga mos ravishda tahlil qilish avj olib, diniy marosimlar, ibodatlar va boshqa diniy amaliyot, an'ana va ta'limotlar tilining shakllanishiga sabab bo'ldi.

Teolingvistikaning lingvistik antropologiya bilan bog'liq jihatlarini ochib berish, uning til va madaniyat bilan bog'liq umumiy hamda xususiy muayyan madaniyatga xos jihatlarini o'rganish bugungi tilshunoslar oldidagi muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Zero, diniy bilimlarning takomillashishi turli dinlarning tili hisoblangan religionimik birliklar tadqiqi doirasini kengaytirib, diniy mafkuraning millat ongidan asrlar davomida joy olishiga sabab bo'lib, badiiyat, diniy ontologiya, diniy tafakkur va bularning jamlanmasi bo'lgan diniy ta'limning, o'ziga xosligi, diniy matnlar yoki konsepsiyani o'zida mujassamlashtirgan badiiy adabiyotlarni o'rganish borasidagi tadqiqotlar ko'lamini belgilashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ilm-fan va ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgan hozirgi kunda, "Yoshlar o'rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyatini va milliy qadriyatlarini keng targ'ib etish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish"¹ asosiy vazifalardan qilib belgilandi. Natijada, religionimik birliklarning stilistik va funksional xususiyatlarini o'rganish odamlar orasidagi munosabatlar, ijtimoiy normativlar va qadriyatlarni qay darajada shakllantirilishi, tilning qanday qilib diniy kontekstda ishlatilishini va muloqotda qanday vazifa bajarishi hamda, turli xalqlar va jamoalar o'rtasidagi madaniy aloqalarni tushunishga, yangi g'oyalar va nazariyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababdan, religionimik birliklar

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – Toshkent, 2017 yil, 16 yanvar. – B. 4.

tadqiqi, nafaqat akademik, balki, ijtimoiy va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega deyish to‘g‘ridir. Bu kabi tadqiqotlar orqali biz dunyo ilimining markaziy elementlaridan biri hisoblangan dinni yanada chuqurroq tushunishimiz va turli xil madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalarni aniq aspektda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lishimizga zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasi xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Religionimik birliklarning o‘rganilishiga, xususan teonimlarning o‘rganilishiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Moskva davlat universiteti, Sank-Peterburg davlat universiteti, Ural davlat pedagogika universiteti (Rossiya Federatsiyasi), University of Harvard, Ohio State University (AQSh), University of Bonn (Germany), University of British Columbia (Kanada), Peking University (Beijing, Xitoy Xalq Respublikasi), Daito Bunka universiteti (Yaponiya), Academy of Korean Studies Grant (Koreya respublikasi), Yarmouk University (Iordaniya), Muhammadiyah University of Surakarta (Indoneziya), Ankara universiteti, Ege Universiteti (Turkiya), Baki Dövlət universiteti, Azarbaycan Milli Elmlar Akademiyasi Folklor instituti (Ozarbayjon), Yeuraziya yltbig universiteti, M.Avezov nomidagi Adabiyot va san’at instituti (Qozog‘iston), Kirgiz uluttuk universiteti (Qirg‘iziston), shuningdek, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Buxoro, Urganch, Namangan, Andijon, Samarqand, Termiz davlat universitetlari (O‘zbekiston) va boshqa ilmiy markazlarda olib borilmoqda.

²Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi www.edu.uz; www.academia.edu; www.philology.ru; www.internauka.ru; www.cyberleninka.ru; www.doi.org.ziyonet.uz va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.

Jahon tilshunosligida til va din munosabatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan: xristianlik, islom, buddizm dinlari sakral kitoblar matnlarining semantik, adabiy va lingvistik xususiyatlari aniqlangan (Cambridge University, Oxford University, University of Birmingham, Buyuk Britaniya); til va din turli aspektlarda o'zaro munosabatga kirishishi asoslangan (Lancaster University, Buyuk Britaniya; State University of Ceara, Braziliya; Moskva davlat lingvistika universiteti, Rossiya; Belarus davlat universiteti, Belorussiya); Injil va Tavrot matnlarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan (Ohio State University, AQSH), diniy kitoblar tilining stilistik xususiyatlari aniqlangan (Universitt Wrzburg, Germaniya; Opole University, Polsha; University of Belgrade, Serbiya), diniy diskursning xususiyatlari va vazifalari belgilangan (Universit libre de Bruxelles, Belgiya; Moskva davlat lingvistika universiteti, Rossiya), diniy nutq sotsiolingvistik aspektlari ko'rilgan (University of Toronto, Kanada); diniy kitoblar yozilgan qadimiy tillar xususiyatlari yoritilgan (grek, aramey, arab, sanskrit) (University of Copenhagen, Daniya; University of Edinburgh, Shotlandiya), diniy matnlardagi metaforik modellar aniqlangan (Vrije Universiteit Brussel (Belgiya), University of Bern (Shveysariya); diniy kitoblar yaratilgan tillar va ularning ingliz tilidagi variantlari solishtirilgan (Cambridge University, Oxford University, Buyuk Britaniya); diniy kommunikatsiya xususiyatlari yoritilgan (Moskva davlat pedagogika universiteti, Rossiya), din va tilning o'zaro bog'liqligi xolistik nazariya nuqtai nazaridan asoslangan (Rossiya fanlar akademiyasi qoshidagi tilshunoslik instituti, Rossiya), diniy matnlar ekzotik leksikasi tavsiflangan (Namangan davlat universiteti), diniy ongning dunyo lisoniy tasvirida aks etishi, muqaddas matnlarda zamon kategoriyasi, lingvomadaniy xususiyatlarning namoyon bo'lishi aniqlangan (O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti), diniy matnning funksional-stilistik aspekti (Termiz davlat universiteti), diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi olib borilgan (Farg'ona davlat universiteti).

Bugungi kunda jahon tilshunosligida til va din munosabatlarini o'rganuvchi teolingvistika bo'yicha qator ustuvor yo'nalishlar asoslangan:

diniy markerlangan konseptlar verballashuvi;

sakral kitoblardagi matnlarning pretsedentlik va intertekstuallik jihatdan ahamiyati;

diniy markerlangan lingvistik birliklarning kognitiv va lingvokulturologik aspektlari;

diniy tilning diniy va dunyoviy jamiyatdagi funksiyalari;

diniy tilning kommunikativ va diskursiv xususiyalari;

diniy matnlarning janrga ko'ra tasnifi va stilistik xususiyatlari;

diniy markerlangan lisoniy birliklarning qiyosiy tadqiqi;

muqaddas kitoblardagi zamon ta'limotining lisoniy tadqiqi;

diniy omillarning yozma va og'zaki nutqqa ta'siri;

turli matnlarda diniy-mifologik ongning aks etishi;

diniy matnning funksional-uslubiy tahlili va uning lingvopragmatik xususiyatlari shular jumlasidandir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon va o'zbek tilshunosligida frazeologik birliklar tadqiqi munozarali masalalarini tizimli o'rganish bo'yicha keng miqyosda tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, V.V.Vinogradov, A.V.Kunin, V.N.Teliya, N.N.Amosova, A.M.Melerovich, V.P.Jukov, G.I.Volkotrub, G.A.Bagautdinova, N.F.Alefirenko, Sh.Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov, Q.Hakimov, K.Bozorboyev, Sh.Abdullayeva, Sh.Almamatova, U.Rashidova³ kabi olimlar tomonidan shakllantirilgan ilmiy-nazariy qarashlar frazeologiya va frazeologik birliklar tadqiqining nazariy jihatdan mustahkam asosga ega tadqiqotlar hisoblanib, jahon, rus va o'zbek tilshunosligida alohida ahamiyatga ega.

Frazeologiyada transformatsiya masalalari I.M.Abramovich, A.M.Babkin, K.L.Shadrin, Y.I.Dibrova, V.P.Kovaleva, D.O.Dobrovolskiy, A.M.Melerovich va V.M.Mokiyenko, A.Mamatov, U.R.Maxmudov, B.I.Boltaeva, B.Yo'ldoshev⁴ kabi olimlarning ishlarida keng tadqiq qilingan.

³Виноградов В. В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины, в его кн.: Избр. труды, т. 3. – М., 1977 – 198 с.; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1996. – 345 с.; Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – 203 с.; Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. 3-е изд. – Москва: Эдиториал УРСС, 2013. – 216 с.; Мелерович, А.М. Семантическая структура фразеологических единиц современного русского языка / А.М. Мелерович, В.М. Мокиенко. – Кострома: КГУ им. Н.А. Некрасова, 2008. – 484 с.; Жуков В.П. Русская фразеология: учеб. пособие для филол. спец./ В. П. Жуков. – Москва: Высшая школа, 1986. – 310 с.; Волкотруб Г.И. “Фразеологические антонимико-синонимические парадигмы современного русского языка”. Дисс.канд.филол.наук. – Киев, 1991.; Багаутдинова Г.А. Механизм создания экспрессивности фразеологических единиц, отражающих психическую деятельность человека // Экспрессивность текста и перевод. – Казань, 1991. – С. 12-17.; Алефиренко Н.Ф. Фразеология в свете современных лингвистических парадигм: Монография. – Москва: Элпис, 2008. – С. 271; Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари: Филол.фан.д-ри.дис.автореф. – Тошкент, 1966. – Б. 46.; Ёўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услугий хусусиятлари: Филол.фан.д-ри.дисс.автореф. – Тошкент, 1993. – Б. 47.; Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол.фан.д-ри.дисс.автореф. – Тошкент, 2000. –Б. 56.; Ҳакимов Қ. Ўзбек тилидаги содда гап қолипли фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанлиги: Филол.фан.ном.дисс.автореф. – Тошкент, 1994. – Б. 27.; Бозорбоев К. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол.фан.номз.дисс.автореф. – Самарқанд, 2000. – Б. 22.; Абдуллаев Ш. Таржима асарларидада фразеологизмлар семантикаси (Т.Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида): Филол.фан.ном.дисс...автореф. –Тошкент, 2006. – Б. 25.; Алмаматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили: Филол.фан.номз.дисс.автореф. –Тошкент, 2008. – Б. 23.; Рашидова У. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили (кўз, қўл ва юрак компонентли иборалар мисолида): Филол.фан.фалсафа.док. (PhD) дисс.автореф. – Самарқанд, 2018. – Б. 51.; Менглиев Б., Худойбердиева М., Бойматова О. Ўзбек тили ибораларининг ўқув изохли луғати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. –Б.39.; Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – М.: Книжный дом «Либроком», 2010. – 216 с.

⁴Абрамович И.М. Об индивидуально-авторских преобразованиях фразеологизмов и отношении к ним фразеологического словаря // Проблемы фразеологии. – Москва: Наука, 1964. – С. 213-219.; Бабкин А.М. Русская фразеология, ее развитие и источники [Текст]. – Л.: Наука, 1970. – 260 с.; Шадрин К.Л. Средство окказионального преобразования фразеологических единиц как система элементарных приемов // Лингвистические исследования 1972. Ч. 2. 1973. – С. 78-97.; Диброва Е.И. Вариантность ФЕ в современном русском языке [Текст]. – Ростов: Изд-во Ростовского университета, 1979. – 192 с.; Ковалев В.П. Основные индивидуально-авторские приемы экспрессивного использования фразеологизмов// Вопросы семантики фразеологических единиц (на материале русского языка). 4.1. Тезисы докладов и сообщений. Новгород, 1971. – С. 303-309.; Добровольский, Д.О. Модификация структуры идиомы в аспекте понимания // Понимание и коммуникация. 2007. Язык. Человек. Концепция. Текст: Тезисы докладов международной конференции.– Москва: НИВЦ МГУ, 2007. – С. 27-31.; Добровольский Д.О. Лексико-синтаксическое варьирование во фразеологии: ввод определения в структуру идиомы // Русский язык в научном освещении, 2007, № 2 (14), – С.18-47.; Мелерович А.М., Мокиенко В.М., Мелерович А.М., Мокиенко В.М. Фразеологизмы в русской речи. Словарь. Изд. 3-е. – Москва: «Русские словари, Астрель», 2005. – 855 с.; Маматов Э.А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Фил.фан.д-ри.дисс.автореф. – Тошкент, 2000. – Б. 48.; Махмудов У.Р. О трансформации фразеологизмов в текстах узбекских газет /

Ingliz, rus va o‘zbek tilshunosligida religionimik birliklarning semantik-struktur, idiomatik ifodalarda hamda nutq akti kabi xususiyatlarini T.M.Fouyas, G.P.Snesaryov, V.Gumboldt, A.K.Gadomskiy, V.G.Gak, K.N.Dubrovina, S.V.Bulavina, L.L.Grigoreva, T.Y.Peredriyenko, A.P.Korneyeva kabi qator olimlar izlanishlari sohaning rivojiga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi⁵. O‘zbek tilshunosligida N.Husanov, Ya.Avliyaqulov, F.I.Nurmanov, M.Y.Umarxo‘jayev, M.R.Galiyeva, D.Rahimjonov, A.Kadirov, S.Sobirov, O.Mavlonov, H.Jo‘rayev, Sh.T.Maxmaraimova, G.Nazarova, Sh.M.Sultonova, R.Nuriddinova, O‘.A.Xudoynazarova va boshqa o‘zbek olimlari o‘z tadqiqotlari bilan muayyan natijalarga erishgan⁶.

Tilshunoslikda teolingvistik tadqiqotlar olib borishgan olimlardan mazkur soha asoschilari hisoblanmish, J.P.Noppen, D.Kristal, A.Vagner, A.K.Gadomskiy, K.Koncharevich, N.Mechkovskaya, V.I.Postavalova⁷ va boshqalarni e‘tirof etish mumkin.

У.Р.Махмудов. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2016. – № 5 (109). – С. 807-810; Болтаева Б.И. Ўзбек тили фразеологик birlikларнинг трансформацияси (семантик-прагматик таҳлил). (PhD), автореферати. – Самарқанд – 2019. – 49 б.; Ўлдошев Б. Мустақиллик йилларида ўзбек фразеологияси: эришилган ютуқлар ва навбатдаги вазифалар Хорижий филология. №1, 2017. 5-13. – Б. 11.

⁵ Fouyas M. *Orthodoxy Roman Catholicism and Anglicanism*. – London.: Oxford University Press, 1972. – 280 p.; Снесарёв Г.П. К Истории некоторых категорий теонимов у народов средней Азии и Казахстана//Ономастика Средней Азии.Фрунзе: Илм, 1980 – С. 272-282.; Гумбольдт, фон В. Избранные труды по языкознанию. – Москва.: Прогресс, 1984. – 498 с.; Гадомский А.К. Религиозный язык – теолингвистика – языкознание / Гадомский А.К. Ученые записки Таврического национального университета им. В.И.Вернадского. – Симферополь. ТНУ, 2007. – С. 287-292.; Гак В.Г. Особенности библейских фразеологизмов в русском языке (в сопоставлении с французскими библеизмами) // Вопросы языкознания, 1997, 5. – С.55-65.; Дубровина К.Н. Библейские фразеологизмы в русской и европейской культуре. – Москва.: Флинта-Наука, 2012. – 264 с.; Булавина С.В. Русские устойчивые словосочетания, содержащие церковно-религиозную лексику: дисс. канд. филол. наук. – Воронеж, 2003. – 156 с.; Григорьева Л.Л. Фразеологическая репрезентация религиозного мира человека (на материале русского, английского и арабского языков): автореф. дисс.к.филол.н. – Казань, 2009. – 21 с.; Передриенко Т.Ю. Концепты «Бог» и «Дьявол» в русской и английской лингвокультурах. На материале паремий и афоризмов: дисс. канд. филол. наук // Т.Ю.Передриенко. – Челябинск: РГБ, 2006. – 193 с.; Корнеева А.П. Английские фразеологические единицы библейского происхождения в языке и речи: автореф. дисс. канд. филол. наук. – Москва.: 2009. – 18с.

⁶ Хусанов Н. XV-аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. 1-қисм. Ёзувчи, –Тошкент, 1996. –В. 26-119.; Авлиёқулов Я. Теонимия тушунчаси ва теонимлар ҳақида//Ўзбек тилшунослиги XXI асрда (илмий-назарий анжуман материаллари). – Қарши: ҚарДУ нашри, 2008. – Б.15-18.; Нурманов Ф.И. Хизр образининг генезиси ва ўзбек фольклоридagi талқини. НДА, – Тошкент.: 2007. –В. 24.; Umarxo‘jayev M.E. Diniy atamalar va iboralar ommabop qisqcha izohli lug‘ati. – Toshkent.: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. –В. 220.; Galiyeva M. Dunyoning lisoniy tasvirida diniy-mifologik tafakkurning aks etishi. Avtoref. – Farg‘ona.: 2019. –В.19.; Rahimjonov D., Kadirov A., Sobirov S., Mavlonov O., Jo‘rayev H. Inglizcha o‘zbekcha diniy-ijtimoiy islohatlar lug‘ati. – Toshkent.: “Mavaraunnahr” 2011. –В.160.; Махмараимова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Қарши, 2018. – 170 б.; Omonturdiyeva Sh. “O‘zbek diniy matnining funksional-stilistik tadqiqi. Avtoreferat. – Samarqand.: 2020. – 48 б.; Nazarova G. Ingliz va o‘zbek adabiyotlaridagi mifonim va mifologizmlarning qiyosiy tahlili. Literature critical studies. vol. 36№1 – 2021. –P. 9.; Султонова Ш.М. Диний лексика диний фразеологик birlikларнинг таркибий қисми сифатида, Заҳриддин Муҳаммад Бобур номидаги Андижон давлат университети илмий хабарномаси, –2020, № 5(49); Nuriddinova R. O‘zbek teonimlari xususida. // “Adabiyot gulshani Navoiy”. – 2004, 2-qism. – В. 91-96.; Xudoynazarova O‘. A. O‘zbek va ingliz tillarida mifonim komponentli frazeologik birliklarning lingvokul’turologik tadqiqi. –Termiz.: 2022. – В. 71.

⁷Noppen J.P. Methodist discourse and industrial work ethic: A critical theolinguistic approach, *Revue Belge de Philologie et d’Histoire*, Vol. 73, № 3, 1995. – С. 693-714.; Noppen J.P. *Theolinguistics*, (Studiereeks Tijdschrift Vrije Universiteit Brussel. Nieuwe Serie № 8), Brussel. V.U.B. 1981. –P. 34.; Crystal D. *Die Cambridge-Enzyklopädie der Sprache*, Übers. und Bearb. der deutschen Ausg. von Stefan Röhrich, Frankfurt am Main. –New York. 1993. Campus-Verlag, – С. 412.; Wagner A., 1999, *Theolinguistik? – Theolinguistik!* [в:] H.O Spillmann, I. Warnke (Hrsg.), *Internationale Tendenzen der Syntaktik, Semantik und Pragmatik. Akten des 32. Linguistischen*

Xristian dini yetakchi bo'lgan tillarda Injilga oid leksik birliklarni kompleks tadqiq qilgan teolingvistlardan, Y.M.Vereshagin, A.P.Koval, O.M.Naboka, K.N.Dubrovina, L.P.Dyadechko, S.V.Yevrayeva, V.M.Mokiyenko, G.A.Lilich, O.I.Trofimkina, N.Raynoxova, W.Mieder, M.Hills, T.Fedulenkova, J.L.Kugel⁸ va boshqalarning Injil leksikasi va frazeologiyasini o'rganishga bag'ishlangan asarlarini qayd qilish mumkin.

Shu o'rinda aytish lozimki, boshqa din vakillarida kuchli qiziqish uyg'otayotgan Qur'onga oid leksik birliklarni o'rganish masalasini tadqiq qilish keyingi yillarda ommaviy tus olgan. Bunday tadqiqotlardan, V.D.Ushakov⁹, M.O.Sultonova¹⁰, V.Jayvoronok¹¹kabi tadqiqotchilarni e'tirof etish mumkin.

Arab tili materiali asosida tadqiqot olib borgan tadqiqotchilardan L.K.Bayramova, L.L.Grigoreva, T.V.Kondratyuk¹²larning ishlarida ayni turkiy tillarda diniy leksikaning o'rganilishiga kam e'tibor berilganligini ta'kidlash lozim.

Kolloquiums in Kassel 1997, Frankfurt am Main: Peter Lang, – С. 507-512.; Гадомский А.К., Лапич Ч. Хрестоматия теоллингвистики, Симферополь: –Универсум, 2008. –С. 247-268.; Кончаревич К.К теоретико-методологическому обоснованию сопоставительной теоллингвистики (на материале русского и сербского языков) [в:] Достижения и перспективы сопоставительного изучения русского и других языков, – Белград, 2012. – С.14-22.; Мечковская Н.Б. Язык и религия: Лекции по филологии и истории религий, – Москва: Агентство «Фаир».1998.; Постовалова И.В. Теоллингвистика в современном гуманитарном познании: истоки, основные идеи и направления, *Magister Dixit*, 2012, № 4 (12). – 231 p.

⁸Верещагин Е.М. Библиейская стихия русского языка//РР.1993. – № 1. – С. 90-98.; Коваль А.П. Спочатку було слово: Крилати вислови біблійного походження в українській мові. – К.: Либідь, 2001.; Набока О.М. Библиейские и Евангелия вид Матвья у мови та мовленні (на матеріалі англійських словників та газетних текстів). Автореферат дис... к. филол. н. – Одесса, 2006.; Дубровина К.Н. Энциклопедический словарь библиейских фразеологизмов. – Москва.: Флинта; Наука, 2010.; Дядечко Л.П. Живодействующая связь языка и культуры: Мат-лы Междунар. науч. конференции, посв. юбилею д-ра филол. наук, проф. В.Н Телия. – Тошкент.: Язык. Ментальность. Культура. – Тула: Изд-во Тул. Гос. Пед. Ун-та им. Л.Н Толстого, 2010. – С. 114-119.; Евраева С.В. Религиозные концепты как отражение русской наивной и индивидуальной картин мира (на материале русских пословиц и поэзии А.Блока). Дисс... к. филол. н.; – Днепрпетровск, 2009.; Мокиенко В.М., Лилич Г.А., Трофимкина О.И. Толковый словарь библиейских выражений и слов. – М.: Астрель, 2010.; Райнохова Н. Отображение цвета в библиейской фразеологии. // Ученые записки Таврического национального университета имени В.И Вернадского. Научный журнал. Серия «Филология. Социальные коммуникации». Том 25 (64), № 3 (2). – Симферополь, 2012. – С.217-222.; Mieder, W. The Bible in Folklore and Literature. University of Vermont, 1999. – 422 p.; Hills, M. Biblical phraseology in English literature. – London, 2011. – 178 p.; Fedulenkova, T. Modern life of biblical phraseology and its variants in English. Social and Behavioural Sciences EpSBS. European Publisher, 2020. – P. 1-11.; Kugel, J. L. The Idea of Biblical Poetry: Parallelism and Its History. New Haven: Yale University Press, 1981. – 245 p.; Kugel, J. L. The God of Old: Inside the Lost World of the Bible. New York: Free Press, 2003. – 346 p.; Kugel J.L. Traditions of the Bible: A Guide to the Bible As It Was at the Start of the Common Era. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1998. – 456 p.

⁹ Ушаков В.Д. Фразеология Корана (Опыт сопоставления фразеоречений Корана и арабского классического языка). – М.: Восточная литература. РАН. 1996. – 204 с.

¹⁰ Султонова М.О. Репрезентація концептосимволу Мухаммеду європейському концептуальному простору (на матеріалі іспанської та французької лінгвокультур) // Проблеми семантики, прагматики та когнітивної лінгвістики. Випуск 20. – Київ, 2011. – С. 468-477.

¹¹Жайворонок В. Знаки української етнокультури. Київ: Вид-во «Довира», 2006. (Jayvoronok V. Znaki ukrajynskoyi etnokulturi. – Kyiv: Vid-vo “Dovira”, 2006. – С. 29.

¹²Байрамова Л.К. Фразеологическая судьба библиейзов и коранизмов // Восток-Запад: доклады 2-й. Междунар. науч. конференции (24-26 августа 1999 г.). Вып. 2. – Наб. Челны: Изд-во института управления, 1999; Григорьева Л.Л. Фразеологическая репрезентация религиозного мира человека (на материале русского, английского и арабского языков). Автореферат дис... к. филол. н. – Казань, 2009; Кондратюк Т.В. Лінгвістичний аналіз та специфіка перекладу фразеології Корану // Українська орієнталістика: Зб. наук. праць викл. та студ. Ін-ту схід. мов Київ. нац. лінгв. ун-ту «Києво-Могилянська академія» / Голов. ред. І.В.Срибняк. – Київ, 2007-2008. – С. 2-3; Коран. Дослідження, переклад (фрагмент), коментарі В.С.Рибалкіна. – Київ: Стило, 2002. – 271 с. (Рец.: Книжковий огляд. – №9(45), –Вересень 2002. – С.24-27.

Z.B.Yaxyayeva, M.R.Sattarova, R.R.Zakirov, I.Pokrovskaya, V.G.Gak, L.M.Granovskaya, K.N.Dubrovina, L.G.Kochedikov, L.V.Jilsova, A.V.Grigorev, A.N.Subacheva, O.Lomakina, V.M.Mokiyenko, Y.V.Reunova¹³ kabi olimlarning ishlarida Injil tili, Injil frazeologiyasi, sakral til, diniy va'z leksikasini tasniflagan hamda, alohida tadqiqot obyekti sifatida tadqiq qilingan.

N.G.Nikolayuk¹⁴ bibleizmlar va Injilga oid lug'aviy birliklar sifatida o'rgangan bo'lsa T.P.Klyukina, N.P.Matveyeva, Y.V.Salnikovalar¹⁵ frazeologik bibleizmlar misolida, Y.A.Gvozdarev, Y.I.Dibrova, I.S.Xostay¹⁶ kabi olimlar diniy birliklar sifatida tadqiq qilishgan.

Diniy birliklarni lingvistik xususiyatlarga ko'ra tadqiq qilgan o'zbek olimlaridan N.M.Uluqov¹⁷, M.E.Umarxo'jayev¹⁸, Sh.S.Sirojiddinov¹⁹,

¹³Яхьяева З.Б. Религиозная лексика и фразеология кумыкского языка: дисс. ... к.ф.н.: – Махачкала, 2010. – 155 с.; Саттарова М.Р. Сакральная лексика современного татарского языка (на материале толкового словаря) [Электронный ресурс] // Современные проблемы науки и образования. 2014. № 6. – С. 120.; Закиров Р.Р., Мингазова Н.Г., Юзмухаметов Р.Т. Фразеология Корана (углубленное изучение истории и культуры ислама): практикум. Казань: Магариф, 2008. – 367 с.; Закиров Р.Р. Способы передачи фразеологии Корана в переводах на русский язык. – Казань: ИД «МеДДоК», 2020. – 88 с.; Покровская И. Турецкая фразеология и паремиология коранического происхождения как фрагмент языковой картины мира KARADENİZ (Black Sea - Черное Море) Yıl 5 Sayı 17. – С. 69-77.; Гак В.Г. Особенности библейских фразеологизмов в русском языке в сопоставлении с французскими библеизмами. Вопросы языкознания. 1997. – № 5. – С.55-65.; Грановская Л.М. Словарь имен и крылатых выражений из Библии / Л.М.Грановская. – М.: Астрель: АСТ, 2003. – 288с.; Дубровина К.Н. Библейские фразеологизмы в русской и европейской культуре/К.Н.Дубровина. –М.: Флинта, 2012. –246с.; Кочедыков.Л.Г., Жильцова.Л.В. Краткий словарь библейских фразеологизмов [Электронный ресурс]/Л.Г.Кочедыков., Л.В.Жильцова – Режим доступа: <https://www.bible-centerru/dict/phrases/008>; Григорьев.А.В. Русская библейская фразеология в контексте культуры. –М.: Индрик, 2006. –360с.; Григорьев.А.В. Русская библейская фразеология и раннехристианская богословская мысль//Знание. Понимание. Умение, 2008. –С.193-197.; Субачева А.Н. Системный Анализ библейских фразеологизмов из лексикографических трудов В.И. Даля/А.Н. Субачева: дис.канд. филол. наук: – Москва, 2007. – 319 с.; Ломакина О. Особенности употребления библейских фразеологических единиц в языке. Л.Н.Толстого [Электронный ресурс] / О.Ломакина – Режим доступа: [file:///C:/Users/007/Downloads/5469-8936-2-PB%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/007/Downloads/5469-8936-2-PB%20(1).pdf); Клюкина Т.П. Особенности употребления и перевода английских и русских библеизмов [Электронный ресурс] / Т.П.Клюкина. – Режим доступа. http://samlib.ru/w/wagapow_a_s/klyuk-bible-phrases.shtml; Матвеева Н. П. Библеизмы в русской словесности / Н. П. Матвеева // Русская словесность, 1993. – № 2. 1996. – № 2 – 234 с.; Сальникова Е.В. К вопросу о библеизмах в немецком языке//Электронный научный журнал «Языковые и филологические исследования». – 2012. – Выпуск 4(6) октябрь-декабрь. – С.3-5.; Мокиенко В.М. Фразеологические библеизмы в современном тексте // Библия и возрождение духовной культуры русского и других славянских народов: к 80-летию Русской /Северо-западной Библейской комиссии (1915-1995). – СПб.: Петрополис, 1995. – С. 143-158.; Реунова Е.В. Лингвопрагматический анализ библеизмов в русском, испанском, итальянском, французском и английском языках: дис. канд. филол. наук: 10.02.20 / Елена Владимировна Реунова. – Москва, 2015. – 255 с.

¹⁴Николаюк Н.Г. Библейское слово в нашей речи / Н.Г.Николаюк. – СПб : Библиополис, 2009. – 384 с.

¹⁵Клюкина Т.П. Особенности употребления и перевода английских и русских библеизмов [Электронный ресурс]; Т.П.Клюкина. – Режим доступа. http://samlib.ru/w/wagapow_a_s/klyuk-bible-phrases.shtml; Матвеева Н.П. Библеизмы в русской словесности / Н.П.Матвеева // Русская словесность, 1993. – № 2. 1996. – № 2.; Сальникова Е.В. К вопросу о библеизмах в немецком языке//Электронный научный журнал «Языковые и филологические исследования». – 2012. – Выпуск 4(6). – С. 3-5.

¹⁶Гвоздарев Ю.А. «Библейские выражения в русской фразеологии», Ядерно-периферийные отношения в области лексики и фразеологии (на материале русского языка): тез. докл. респ. конф., – Новгород 1991. – С.58-60.; Диброва Е.И. Вариантность фразеологических единиц в современном русском языке, Ростов-на-Дону: Изд-во Ростовского университета, 1979. –192 с.; Хостай И.С. Системно-функциональные характеристики фразеологических единиц библейского происхождения в английском языке: дис.канд. филол. наук: – Москва, 1997. – 255 с.

¹⁷ Улуков Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол.фан.номзоди.дисс... автореферати. – Тошкент, 1997. – 167 с.

¹⁸Умархўжаев М.Э. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. – Тошкент, 2016. –220 б.; Умархўжаев М.Э. Тиллардаги диний услуб ҳақида мулоҳазалар//Стилистика тилшунослиқнинг замонавий йўналишларида. Илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – Б.50-51.

Sh.T.Mahmaraimova²⁰, Sh.M.Sultonova²¹, M.R.Galiyeva²², Sh.R.Amonturdiyeva²³, Sh.T.Yusupov²⁴, D.U.Eshmuratova²⁵ kabi tadqiqotlarda diniy leksika, diniy uslub, teomorf metaforalar, teonim komponentli frazeologizmlar borasida tadqiqotlar olib borishganligini e'tirof etish mumkin.

Yuqoridagi ishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, tilshunoslikda diniy frazeologik birliklar jumladan, religionimik birliklar tadqiqida yechimini kutayotgan masalalar ko'p. Jumladan, ingliz tilshunosligida religionimik birliklarning stilistik va nutqiy funkcionalligi masalasiga bag'ishlangan maxsus tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrasining "Pragmalingvistika, funkcionalar tarjimasunoslik va til o'rgatish jarayonlari integratsiyasi" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasini bilan bog'liq ravishda amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz religionimik birliklarining funkcionalar va stilistik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

religionimik birliklarni tadqiq qilish bilan, mazkur component asosli birliklarning stilistik va funkcionalar xususiyatlarini nazariy asoslarga ko'ra tadqiq etish, religiyasiga xos bo'lgan birliklar lisoniy vazifalarini ochib berish;

religionimik birliklarning *xususiy* va *umumiy* ma'nolarini aniqlash, madaniy kontekstdagi o'rnini tahlil qilish, Ingliz Injil iboralarining stilistik tahlilini amalga oshirish, diniy matnlarning kishi ongiga *ma'naviy* va *estetik* ta'sir darajalarini aniqlash, uslubiy stilistik tahlilini amalga oshirish;

religionimik birliklarining asosiy manbai hisoblangan *anglikanizm*, *katoliklik* va *protestantlik* kabi diniy idora tillarini kontekstlarda tahlil qilish, *anglikanizm*, *katolik*, *protestant* kabi diniy uyushmalarning tilini stilistik tahlillar yordamida uslubiy elementlari til vositalarining badiiy matnlarda ishlashi, religionimik birliklarning stilistik bo'yoqdorligi masalalarini tadqiq etish;

diniy ikonlar va ularning semiotik belgilarini *kognitiv* jarayonlar asosida tahlil qilish, *ikonlik* nuqtai nazaridan, diniy belgilarning ma'no xususiyatlari tahlilini amalga oshirish, diniy metaforalarning ikonligini farqlash, kognitiv xususiyatlarini

¹⁹Сирожиддинов Ш.С. Диний-фалсафий таълимотлар ва Навоий дунёкараши//Алишер Навоий ижодий ва маънавий меросининг оламшумул ахамияти/Халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2011. – Б. 82-86.

²⁰Махмараймова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти: Филол. фанлари бўйича PhD диссертацияси. – Қарши, 2018. – 151 б.

²¹Султонова Ш.М. Муқаддас матнларда замон категориясининг лингвомаданий хусусиятлари. Филол.фанлари бўйича PhD диссертацияси. – Фарғона, 2018. – 57 б.

²²Галиева М.Р. Дунёнинг лисоний тасвирида диний-мифологик тафаккурнинг акс этиши. Фил.фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Фарғона, 2019. –77 с.

²³Амонтурдыева Ш.Р. Ўзбек диний матнининг функционал-стилистик таҳлили. Филол.фанлари бўйича PhD диссертацияси. – Самарқанд, 2020. – 48 б.

²⁴Юсупова Ш.Т. Диний матнларнинг лингвопрагматик хусусиятлари Филол.фанлари бўйича PhD диссертацияси. – Фарғона, 2021. – 48 б.

²⁵ Eshmuratova D.U. O'zbek va ingliz tillarida teonim komponentli frazeologik birliklarning lingvoqiyosiy tadqiqi. – Termiz, 2023. – 145 b.

ochib berish;

religionimli metonimiyalarning *ikonlik xususiyatlarini* tahlil qilish orqali, *kontekstual-kognitiv* funksiyalarini badiiy matn asosida tadqiqini amalga oshirish;

religionimlarni pragmatik jihatdan tahlil qilish, diniy iboralar va belgilarning ijtimoiy o'zgarishlarga ta'siri darajasini aniqlash, religionimik birliklarining zamonaviy jamiyatdagi o'rni, kontekstdagi rolini tahlil qilish.

Tadqiqotning obykti sifatida ingliz badiiy matnlaridagi religionimik komponentli frazeologik birliklar, iboralar, idiomalar, frazalar va aforizmlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz religionimik birliklarining funksional va stilistik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida lisoniy tavsif, kvantitativ, semantik, komponent, aksiologik, tasniflash, tavsiflash, kommunikativ, semantik-stilistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

religionimik birliklarning iste'molga kiritilishi madaniy va tarixiy tamoyillar, siyosiy ta'sir, etika va axloqiy qadriyatlar, dinlararo dialog va toqat tushunchalari, diniy tushunchalar tadqiqida psixologik va ruhiy jihatlar, interdisiplinar yondashuv kabi omillar ustivorligida shakllanganligi aniqlangan;

ingliz religionimik birliklarining funksional xususiyatlari xalqning diniy-etiqodiy tushunchalari, milliy-madaniy qadriyatlari, o'ziga xos urf-odat va marosimlari, milliy mentaliteti, dunyoqarashi, ruhiyati, til va nutq madaniyati, lisoniy xususiyatlari, poetik tafakkuri integratsiyasi negizida shakllanganligi asoslangan;

ingliz badiiy diskursida religionimik birliklar *anglikanizm, katolik va protestantlik* kabi diniy idora tillari ifodalangan kultural va tarixiy kontekstlar, bibliozmlar, arxaizmlar, Injildan kelib chiqqan maqol va iboralar, *metaforik, metonimik modellar* kabi lingvistik namunalar misolida namoyon bo'lishi dalillangan;

religionimik ikonlar va simvollarning semiotik belgilari diniy metaforalar va aforizmlar asosida kognitiv jarayonlarni hosil qilishi hamda ular diniy hikoyalar, qadriyatlar yoki e'tiqodlarni ifodalashda mantiqiy qiymat kasb etishi isbotlangan;

ingliz religionimik birliklarining stilistik xususiyatlari diniy mavzular: *gunoh va kechirim, zohiriy va botiniy, ruhiy kamolot* hamda jamiyatning madaniy hayotini tasvirlovchi: *bayramlar va diniy marosimlar, milliy adabiyot* kabi diniy metaforalar funktsionalligining birlamchi omillari ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

religionimik birliklar hamda tarkibida diniy qarashlar mavjud bo'lgan frazeologik birliklar nazariyasiga oid ta'limot xronologik ma'lumotlari berilgan va religionimik birliklarning badiiy matnda stilistik xususiyatlari aniqlangan;

dunyo tilshunosligida mavjud tadqiqotlar tajribasi asosida religionimik birliklar hamda frazeologizmlarning uslubiy stilistik, kognitiv hamda pragmatik xususiyatlari nazariy bilimlar asosida yoritilgan;

religionim va teonimlar mazkur birlik komponentli frazeologizmlarning diniy leksika sifatidagi mavzuiy guruhlari shakllantirilib, ularning tarixiy-etimologik va funksional xususiyatlari ochib berilgan hamda ijtimoiy kontekstlarda tahlil qilingan;

relegionimik birliklarning stilistikasi o'rganilgan, zamon va makon bilan bog'liq interkontekstual xususiyatlarining funkcionalligi ingliz badiiy matnlari misolida tahlillar asoslangan;

ingliz religionimik birliklarining kontekstual mavqeyi aniqlanib, matn bilan bog'liq sigmental xususiyatlari tahlili amalga oshirilgan, cherkov leksikasida dinning roli badiiy matnlar bilan tubdan farq qilishi ijtimoiy va badiiy kontekslarda o'rganilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chiqarilgan xulosalarning izchilligi, ularni dalillovchi ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, to'plangan material tahlilining lisoniy tavsif, kvantitativ, semantik, komponent, aksiologik, tasniflash, tavsiflash, kommunikativ, semantik-stilistik kabi tahlil usullari bilan asoslanganligi, nazariy xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati religionimlarning ta'rifi va talqini, badiiy matndagi relegionimik ruhdagi barcha turdagi leksika va frazeologiyaning tasnifi hamda, diniy frazeologizmlarni o'rganishning nazariy asoslarini yaratishda fanlararo yondashuv qo'llanilganligi va tadqiqot metodlari hamda olib borilgan tahlillar natijasida erishilgan xulosalarni borliq, teonim, va din tushunchalarining, til va madaniyatning o'zaro munosabatini ilmiy tadqiq qilishda qo'llanilishi hamda kelajakda rivojlantirilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya xulosalari va materiallaridan oliy ta'lim muassasalarida umumiy tilshunoslik, pragmaligvistika, stilistika, leksikologiya, kognitiv tilshunoslik, matn tahlili kabi fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda unumli foydalanish mumkinligi, shuningdek, tadqiqotning natija va manbalari ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida dissertatsiya, monografiya, ilmiy maqola, darslik, o'quv qo'llanmalar, lug'atlar tuzishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz religionimik birliklarining funksional va stilistik xususiyatlari tadqiq qilish asosida:

religionim birliklarning iste'molga kiritilishi madaniy va tarixiy tamoyillar, siyosiy ta'sir, etika va axloqiy qadriyatlar, dinlararo dialog va toqat tushunchalari, diniy tushunchalar tadqiqida psixologik va ruhiy jihatlar, interdisiplinar yondashuv kabi omillar ustivorligida shakllanganligiga oid nazariy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2023 yillarda bajarilgan IL21091433 raqamli "O'zbek realiyalariga oid maqolalar bazasi platformasini yaratish (Wikipedia elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida)" mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 2-apreldagi №01/4-1203-son ma'lumotnomasi). Natijada chiqarilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga tadbiq etilishi yuzasidan erishilgan ijobiy natijalar innovatsion loyiha doirasida elektron platforma, nazariy va amaliy manbalar tayyorlashda muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

ingliz religionim birliklarining funksional xususiyatlari xalqning diniy-etiqodiy tushunchalari, axloqiy qadriyatlari, o'ziga xos urf-odat va marosimlari, milliy mentaliteti, dunyoqarashi, ruhiyati, til va nutq madaniyati, lisoniy xususiyatlari,

poetik tafakkuri integratsiyasi negizida shakllanganligiga oid xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2022-2024 yillarda amalga oshirilgan AQSh elchixonasi hamda Amerika Kengashi hamkorligida moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” nomli xorijiy loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 14-martdagi № 721/02-son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz religionimik birliklardan loyiha negizida tashkil etilgan madaniy, shaxsiy rivojlanish va jamoaga xizmat ko’rsatish faoliyat tadbirlarini tashkil qilishda foydalanilgan;

ingliz badiiy diskursida religionim birliklar *anglikanizm*, *katolik* va *protestantlik* kabi diniy idora tillari ifodalangan kultural va tarixiy kontekstlar, bibliyalar, arxaizmlar, Injildan kelib chiqqan maqol va iboralar, metonimik modellar kabi lingvistik namunalar misolida namoyon bo’lishi bilan bog’liq xulosa va natijalardan “Umrboqiy meros” O‘zbekiston madaniyati va san’ati targ‘ibot markazida amalga oshirilgan 81-12/202 “Milliy qadriyatlar yoshlar ardog‘ida” mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston madaniyati va san’ati targ‘ibot markazining 2025-yil 22-martdagi №ML01/01-13-son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz religionimik birliklarning funksional va stilistik tahliliga bag‘ishlangan misollardan foydalanish ilmiy loyihaning amaliy dolzarbligini oshirishga xizmat qilgan;

religionimik ikonlar va simvollarning semiotik belgilari diniy metaforalar va aforizmlar asosida kognitiv jarayonlarni hosil qilishi hamda ular diniy hikoyalar, qadriyatlar yoki e’tiqodlarni ifodalashda mantiqiy qiymat kasb etishi bilan bog’liq xulosa va natijalardan “Umrboqiy meros” O‘zbekiston madaniyati va san’ati targ‘ibot markazida amalga oshirilgan 90-01/38 “Jadidlarning jamiyat huquqiy madaniyatini shakllantirishdagi ta’siri” mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston madaniyati va san’ati targ‘ibot markazining 2025-yil 22-martdagi №ML01/01-12-son ma’lumotnomasi). Natijada, inglizzabon xalqlari religionimik birliklarining stilistik bo‘yoqdorligi badiiy matn asosini tashkil etishi kabi xulosalardan loyihada foydalanilgan;

religionimlarni pragmatik fenomen sifatida o‘rganish va kvantitativ usul orqali linvopragmatik tahlil qilish natijasida religionimlarning *milliy identivlik* va ijtimoiy o‘zgarishlarni yanada chuqurroq tushunishga imkon beruvchi markaziy element ekanligi kabi tadqiqot natijalari va yangiliklaridan, Mirzo Ulug‘bek nomli O‘zbekiston milliy universitetida bajarilgan Φ-7-13 raqamli “Adabiyotshunoslik tarixining fundamental tadqiqi” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetining 2025-yil 04-martdagi 04/11-4412-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida tayyorlangan tarqatma materiallar, uslubiy qo‘llanmalar, lug‘atlar va adabiyotlar ilmiy-nazariy manbalar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma’ruzalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, jumladan, 6 ta

respublika va 7 ta xalqaro bazalar ro'yxatiga kirgan xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyot ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 270 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Jahon tilshunosligida religionimlar tadqiqining ilmiy-nazariy asoslari: tavsif va tasnif”** deb nomlanib, jahon olimlari tomonidan religionimlar tadqiqiga oid ilmiy qarashlar, munosabatlar va farazlar o'rganilgan. Ushbu bob uchta fasldan iborat bo'lib, birinchi fasl *“Religionimik birlik tushunchasi va uning lingvistik tadqiqi”*, ikkinchi fasl *“Religionimik birliklar tipologiyasi va klassifikatsiyasi”* va uchinchi fasl esa, *“Ingliz tilidagi religionimik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari”* deb nomlanib, mazkur birliklarning din tushunchasi bilan aloqadorligi, religionimik frazeologik birliklarning klassifikatsiyalari tahlilga tortilib, tadqiqotning nazariy asosi ochib berildi.

Ingliz religionimik birliklari tadqiqi mazkur birliklarning o'rganishni ahamiyatli qiluvchi bir necha ilmiy asoslar va omillar bilan dalillashga ehtiyoj tug'diradi. Ular quyidagilardan iborat:

1. *Religionimik birliklarning madaniy va tarixiy jihatları:* Ingliz religiyalari, ayniqsa, anglikanizm, katoliklik va protestantlik kabi oqimlar tili, Britaniya va uning tarixiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ularni o'rganish orqali, ingliz madaniyati, adabiyoti va san'atining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan diniy qadriyatlar va an'analarni yaqinroq tushunishimiz mumkin. Bu, tarixshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarini til bilan bog'liqlikda religionimlarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

2. *Dinga religionimik birliklarning siyosiy ta'siri:* Ingliz religionimik birliklari siyosiy jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatgan. Bunga asosiy sabab, Angliya inqilobi va diniy urushlar davrida din va siyosat o'rtasidagi munosabatlar o'zgarib borganligidadir. Bu, siyosatshunoslik va ijtimoiy fanlar uchun muhim tadqiqot mavzusiga aylangan. Buning asosiy sabablaridan biri, din va siyosat o'rtasidagi munosabatlar ko'plab ijtimoiy va siyosiy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkinligidadir.

3. *Religionimik birliklarning etika va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liqligi:* Ingliz religionimlari axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni o'rganish orqali, diniy axloqiy tizimlar va qadriyatlarining qanday

rivojlanganini, zamonaviy jamiyatdagi axloqiy muammolarni hal qilishdagi yondashuvlarning mavjudligini tushunish mumkin. Bu, diniy axloqiy nazariyalar va diniy tilning amaliylashuvini tadqiq etishda muhim asos bo'la oladi.

4. *Dinlararo dialog va toqat tushunchalari*: Ingliz religionimik birliklarini tadqiq qilish, turli dinlar o'rtasidagi dialogik nutqning mukammal shakllanishiga yordam beradi. Bu, diniy bag'rikenglik, diniy toqat va bir-birini tushunish muhitini yaratishga muhim ahamiyat kasb etibgina qolmay, zamonaviy jamiyatda tinchlik va barqarorlikka olib kelishi isbotlangan.

5. *Diniy birliklar talqinida psixologik va ruhiy jihatlar*: Religionimik birliklar inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ularning tadqiq orqali insonlarning ruhiy holati, stressni yengish usullari va ma'naviy rivojlanishlari haqida ko'proq ma'lumot olish mumkin. Bu, psixologiya va ruhshunoslik sohalarida tadqiqotlar olib borishda ahamiyatlidir.

6. *Ilmiy tadqiqotlar va interdisiplinar yondashuv*: Ingliz religionimik birliklarini tadqiq qilishning yana bir muhim omili tarix, antropologiya, sotsiologiya va psixologiya kabi bir qator ilmiy sohalar uchun ham muhimligidadir. Bu sohalararo olib boriladigan tadqiqotlar, dinning inson hayotidagi o'rnini va ta'sirini religionimik birliklar orqali yanada aniqroq tushunishga yordam beradi. Mazkur tadqiqotlar interdisiplenar yondashuvlarni talab qilib, lingvistikani falsafa, teologiya, sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan birgalikda tadqiq qilish zaruratini tug'diradi.

Yuqoridagi omillarni hisobga olib, ingliz religionimik birliklarini o'rganish nafaqat ilmiy, balki, ijtimoiy va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyatga egadir deyish to'g'ridir.

Ingliz religionimik birliklarini tadqiq qilishning yana bir muhim omili, tilning leksik va sintaktik strukturalarida diniy terminologiyaning o'rnini hisoblab, bunday leksik birliklar, diniy iboralarning struktur-semantik xususiyatan qanday tuzilishga ega ekanligini bilish, dinning madaniy va ijtimoiy kontekstdagi ahamiyatini belgilash, qolaversa, ingliz xalqida din nafaqat kommunikativ vosita sifatida, balki, ijtimoiy o'zlikni anglash va madaniy merosni ifodalovchi element sifatida ham muhim ahamiyatga ega ekanligidagidir.

Bu borada jahon olimlari tomonidan yetarlicha tadqiqotlar amalga oshirilgan²⁶. Bunday tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, diniy tilning madaniyati, turlicha xususiyatga ega. Masalan, *liturgik til, va'zlar tili, diniy nutqlar, diniy lirika* o'zining diniy funksiyasi jihatidan o'zaro farqlanib, ular orasidagi sohalararo munosabatni religionimik birliklar birlashtiradi.

Tilga olingan tadqiqiy yo'nalishlar odatda lug'at manbalari va Injil iqtiboslariga tayangan holda tadqiq etiladi. Shu bilan birga, diniy tilning turli ko'rinishlari orasidagi farq va o'xshashliklar ko'pincha siz kutmagan murakkab va

²⁶ Frye N. *The Great Code: The Bible and Literature*. – New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1982. – 261 p.; Alter R. *The Art of Biblical Narrative*. – New York: Basic Books, 1981. – 190 p.; Sternberg M. *The Poetics of Biblical Narrative: Ideological Literature and the Drama of Reading*. – Bloomington: Indiana University Press, 1985. – 580 p.; Jasper D. *The Study of Literature and Religion: An Introduction*. – London: Macmillan, 1989. – 176 p.; Crystal D. *The Language of Religion*. – London: Bloomsbury Academic, 2014. – 272 p.; Vanhoozer K.J. *Is There a Meaning in This Text? The Bible, the Reader and the Morality of Literary Knowledge*. – Grand Rapids: Zondervan, 1998. – 496 p.; Ricoeur P. *Figuring the Sacred: Religion, Narrative, and Imagination*. – Minneapolis: Fortress Press, 1995. – 356 p.

chuqur madaniy-lingvistik asoslarga bogʻliq ekanligi aniqlangan. Kuzatuvlarimiz shuni koʻrsatadiki, har bir diniy til turi oʻziga xos madaniy va lingvistik fon, normativ-konseptual tizim, metaforik-ramziy zaxira va diskursiv amaliyotlar majmuasiga ega.

Mazkur tadqiqotning maqsadi ushbu oʻziga xos xususiyatlarni keng qamrovli tasvirlash emas, balki, diniy tilni tasvirlashda qoʻllaniluvchichi stilistik figuralarning (metafora, metonimiya) diskursdagi funktsionalligi, muallif ongiga taʼsir jarayonlarini tizimli tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot diskursiv kontekstlarda bunday vositalarning semantik-pragmatik hayotiyliigi, kommunikativ maqsadi va effektivligi hamda matn ichidagi faoliyatlarini aniqlashga yoʻnaltirilgan.

Tadqiqotimiz mobaynida diniy tilni oʻrganishning bosh kaliti boʻlgan teolingvistikaga murojaat qilingan. Teolingvistika diniy tilni tizimlashtiruvchi tilshunoslikning sohasi hisoblanib, oʻtgan asrimizning oʻrtalarida tadqiqotchi, A.K.Gadomskiy tomonidan tilshunoslik termini sifatida fanga kiritilgan. Uning fikricha, dinning evolutsiyasi teolingvistikaning shakllanishi, rivoj topishi va bugungi kuni bilan bogʻliq.

J.P.Noppen, A.K.Gadomskiy, E.Kucharskaya, Ch.Drays, B.Postavalova, D.Kristal, F.Vanger²⁷ kabi olimlar diniy sohaning turli elementlarini oʻrganib, diniy birliklar va ular tarkibidagi alohida leksemalar va butun lingvistik-mavzuiy guruhlarning semantik strukturasi tahlil qilishgan.


Bugungi kunda ingliz diniy leksikasini tadqiq qilishda struktural yondashuvlarga tayanilmoqda. Bunday yondashuvlar mazkur birliklarni anʼanaviy lugʻatlardagi kabi faqat alfavit tartibida tadqiq etishni emas, balki, ularning semantik motivatsiyasi, kontseptual tizimi va referensial xususiyatlariga koʻra boʻlishi kerak deyishmoqda. Agar diniy birliklar shunchaki alfavit tartibidan tashqari, semantik jihatdan asoslanmagan tasnif orqali tartibga solinsa, leksik makon elementlari oʻrtasidagi ichki munosabatlarni yuzaga chiqarib boʻlmaydi. Aksincha, leksik mazmuni kontseptual yoki referensial maʼno asosida tizimlashtirish, diniy leksikani interdesiplinar tadqiqotlar fonida yanada mukammalroq maʼnoviy aniqligini taʼminlab, soʻz guruhlari oʻrtasidagi semantik bogʻlanishlarni aniqlash imkonini beradi. Natijada, diniy leksikaning bunday ilmiy tasnifi oʻzaro semantik aloqalar, kontseptlar tizimi va diniy nomlashning ichki tuzilishlarini aks ettiruvchi yaxlit struktura sifatida namoyon boʻladi²⁸.

Religionimik birliklarni ham yuqorida tilga olingan tuzilma asosida tadqiq qilish bir butunlikda ishlab, alohida leksik manbadan tashkil topgan boshqa tizimlardan mutlaqo mustaqil boʻlmas-da, oʻziga xos aniqliklarga ega boʻlgan sensor munosabatlar tizimini hosil qiladi. Tizimning chegaralari baʼzan aniqlash qiyin boʻlgan kesishishlardan iborat. Koʻpincha alohida leksik elementlarning

²⁷ Noppen, Jan Pieter. *Lexicography and Religion: The Problem of Religious Language*. – Leuven: Leuven University Press, 1981. – P. 50. Гадомский, Александр Константинович. *Теоллингвистика: история, современное состояние и перспективы развития*. – Симферополь: Таврия, 2008. – С. 67.; Kucharska, Elzbieta. *Język religijny w badaniach lingwistycznych*. Warszawa: Wydawnictwo Naukowe PWN, 2005. – S. 12.; Drays, Charles. *Religious Discourse and Semantic Structures*. – London: Routledge, 1998. – Постовалова, Валентина Ивановна. *Язык и религия в контексте культуры*. – Москва: Наука, 1998. – P. 123. Crystal, David. *The Cambridge Encyclopedia of Language*. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. Wagner, Friedrich. *Language and Religion: A Semantic Approach*. – Berlin: Walter de Gruyter, 1996.

²⁸ Thomas J.P. Chase. *A diachronic semantic classification of the english religious lexis*. University of Glasgow Faculty of Arts Department of English Language October 1983. – P. 2.

ma'nolari bilan bog'liq muammolar, leksik maydonlarga ham xosdir. Masalan, *religion* birligining leksik maydoni *morality*, *myth* va *ritual observances (non-religious)* kabi ko'plab maydonlar bilan kesishadi. Maydonning ba'zi komponentlari markaziy, boshqalari esa, markaziy ma'nodan tashqari hisoblanadi. Markaziy bo'lmagan ma'no elementlarini qabul qilish yoki chiqarish ba'zan tasodifiy ko'rinishi mumkin. Biroq, tarkibiy leksik elementlar o'rtasida bog'lanish mavjud²⁹. Va mazkur ma'noviy bog'lanishlari ayni diniy matnlarda tasodifiy emasdir



Din o'z o'qi atrofida biriktiruvchi manba elementlari

Dinning leksik maydoni, eng ko'p tarqalgan va davomli, ijtimoiy hodisalarni qamrovchi keng konseptual bo'shliqni o'z ichiga oladi. U eng abstrakt teologik tushunchalardan tortib, ritual va marosim amaliyotlarida ishlatiladigan aniq hodisalarni ifodalovchi oddiy konkret otlargacha keng ko'lamli referentlarni qamrab oladi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Ingliz religionimik birliklarining funksional ahamiyati”** deb nomlangan bo'lib, uning *“Religionimik birliklar va tilning ma'naviy, estetik va kommunikativ funksiyalari”*ga bag'ishlangan birinchi faslida muqaddas kitobga xos, an'anaviy nutqda qo'llaniluvchi diniy ifodalar hamda idiomalarning nutqda ommalashgan turlarining kontekstual tahlili amalga oshirilgan. Mazkur bobning ikkinchi fasli *“Religionimik birliklarning til hodisalariga uchrashi, sotsial, siyosiy-madaniy kontekstdagi o'rni”*ga bag'ishlangan bo'lib, unda religionimik birliklarning matnda enantiosimiya, eponimizatsiya, desakralizatsiya, intertekstualizatsiya kabi qator til hodisalariga uchrashi xususida so'z boradi. Uchinchi fasli *“Ingliz madaniyatida religionimik birliklarining semantik strukturasi”* tarzida sarlovhalangan bo'lib, diniy lug'atardagi religionimik birliklarning til fenomeni sifatida leksik-semantik tadqiqi amalga oshirilgan. *“Sintaktik shakllar va religionimik birliklar: frazeologik va idiomatik ifodalar”* mazmunidagi to'rtinchi fasl religionimik birliklarning sintaktik shakllari, frazeologik birliklar va idiomatik ifodalarning tilshunoslikda tadqiqiga bag'ishlangan.

So'nggi yillarda jahon hamjamiyatida diniy tushunchalar tarixda ilgari bajarilgan vazifadan farqli o'laroq yanada amaliy, ommabop va dunyoviy ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda din har qachongidan ham ijtimoiy hayotga voqeylangan. Buni biz ommaviy axborot vositalari, siyosat, adabiyotda fazilat va axloqiy me'yorlarning manbai sifatida ko'zga ko'rinayotganligi bilan asoslaymiz.

²⁹ Yuqoridagi manba. – P. 3.

Bu esa, zamonamiz dinining nutq aktida takomillashayotgani va arxaizmlarning zamonaviy dunyoga qaytayotganligining bir misoli deyish mumkin.

Xususan, bibliizmlarga insonlarning madaniyati yashash tarzi va bugungi kuninig ko'zgusi sifatida qarash mumkin. Injil asosli maqol va iboralar esa, ko'pincha zamonaviy hayot hodisalarni ifodalash uchun faollashmoqda. Masalan, *to keep as the apple of the eye* [Injil, Yangi Ahd 32.10]; *to cherish smth/smb; crown of thorns* [Injil, Matto 27.29]; *tribulations* yoki *Alpha and Omega* [Injil, Yangi Ahd, 29:45] kabi religionimik birliklari biror hodisaning boshlanishi bilan bog'liq ramziy belgi sifatida talqin qilinmoqda. Shuningdek, *God's book* [Vahiy 3.5] yoki *He who is not with me, is against me* [Matto, 12.30] kabi religionimik birliklar ingliz siyosiy nutqidan ham keng o'rin egallagan. Injil iboralarining bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida qamrovi kengayib, ingliz madaniyati, iqtisodiy-siyosiy dikursi kabi jamiyatning barcha jabhalarini qamraganligi buning yaqqol dalilidir.

Tadqiqot mobaynida shaxsning intellektual xususiyatlarini nomoyon etuvchi metonimik idiomalarning modellari tahlilga tortildi. Mazkur intellektual xususiyatlarini bildiruvchi frazeologik birliklarning metonimik modellariga *Name of a person/Shaxs nomi* turkumidagi metonimiyalar, asosan, *qism-butun* shaklida nomoyon bo'lishi asoslandi. Kishining tana a'zolari yoki uning xususiyatlaridan kelib chiquvchi nomlar, inson tanasi qismlarining turli xususiyatlariga ega metonimik religionimik komponentli birliklar tarkibida tahlilga tortilgan. Masalan, *copper forehead* iborasi injilga uchrab, bir yo'nalishni tanlovchi, o'jar odam xarakterini,³⁰ *headship of Christ, ear of God, lend an ear to the scriptures, the ear of the believer, headstone, head of the church*³¹ kabi iboralar esa, injil xarakterli bibliik xususiyatga ega ekanligi aniqlangan.

Inson tanasining tovushlar orqali haqiqatni idrok etish qobiliyati eshitish organi quloq tomonidan ta'minlanadi. *Ear* komponentli frazeologik birliklarda eshitish analizatorining faoliyati ko'proq odamning diqqatlilik yoki e'tiborsizlik kabi psixik xususiyatlarini nomoyon etishi tahlil qilingan. Masalan, *close (shut) one's ears to smth* iborasi *quloq solma* biror narsaga *kar bo'l*, *eshitmagandek ko'rin* kabi yashrin ma'noga ega. Masalan, *seal or stop one's ears, turn a deaf ear to smth, their poison is like the poison of a serpent, they are like the deaf adder that stoppeth her ear* [Zabur 58:4] kabi birliklar etimologik xususiyatan injilga asosli bo'lib, eshitishning faktik xususiyatlarini nomoyon qiladi. Mazkur iboralarni idrok etish interdisiplinar yondoshuvlarni talab qiladi.

Shaxsning emotsional xususiyatlarini bildiruvchi metaforik idiomalarning modellari guruhida fazoviy (parametrik), konseptosferik xususiyatga asoslangan frazeologik birliklarning modellari aniqlangan. Inson hissiyotining fazoviy o'lchovlarini qarama-qarshi hissiy xususiyatlarni ifodalovchi sifatida talqin qilinishi dalillangan. Ingliz madaniyatida religionimik birliklar modeli strukturasi baholovchi komponentlari sifatida yuqori va pastki konseptosferalarni qamrab, asosida mifologiya mavjud bo'lgan diniy qarashlarga asoslanganligi ochib berilgan. Xususan, *heaven* va u bilan bog'liq *air, cloud* birliklari yuqori konseptosferani

³⁰Thomas J.P. Chase A. Diachronic semantic classification of the English religious lexis. – USA.: University of Glasgow Faculty of Arts Department of English Language. 1983. – P. 103.

³¹ Oxford English Online Dictionary. 2014.

anglatsa, aksincha *soil* pastki konseptosferaga mansub hisoblanib, an'anaviy kontekstlarda ijobiy xususiyatli ruhiyatda kognitiv simantika orqali manoviy nomoyon bo'luvchi hisoblanadi³².

Tuyg'ular konseptosferasiga esa, *quvonch*, *ko'tarilish* va *eyforiya* kabi ruhiy holatni anglatuvchi religionimik birliklar kiradi. Bundan tashqari, mazkur sferaga *parvoz* konseptosferasi ham qo'shiladi. Masalan, *be (sit/feel) on top of the world* [LERPD, 2005: 772; CEGUIE, 2005:156]; *between heaven and earth* [EUPD, 2006: 125]; *be (sit) on a cloud* [LERPD, 2005:155]; *(be) up in the air* [LDEI, 1996:5]; *walk (tread) on (upon) air* (podshoh haqida) [LERPD, 2005:36]; *float on a cloud (on clouds, on the clouds/on air* [LERPD, 2005:286]; *be (jump) over the moon* [LDEI, 1996: 224; LERPD, 2005:514] kabi birliklar badiiy matnda faol hisoblanib, asosan yuqorigi konseptosferada kayfiyat turkumli iboralarda uchrab, lokyutiv mazmunga ko'ra ko'tarilish, osmonga chiqish, yengil bo'lishni ifodalasa, illokyutiv nutq aktida quvonch, ruhiy yengillik his qilish, ilhomni yetkazish kabi ma'nolarni, perlokyutiv nutq aktida motivatsiya olish, boshqalarni ruhlantirish hamda ijobiy hissiyotga tushirish kabi majoziy ma'nolarni ifodalaydi.

Shaxsning emotsional xususiyatlarni bildiruvchi ko'plab frazeologik o'xshatishlar ma'noning ancha shaffofligiga va motivlanganligiga nisbatan tahlil qilinadi. Masalan, *Abraham's bosom* [LSR, 2003:59]. injildan kelib chiqqan va o'ta darajada baxtli holatning ifodasidir. *Abraham's bosom* eski Ahdda yo'q, lekin Ibroniya Yozuvlarida mavjud. U o'liklarning boshpanasi hisoblanib, xristianlik ibora jannatning ramzi hisoblanadi³³.

Injil va bibliyada uchrovchi qattiqlik, hissiy barqarorlik, qo'pollik, befarqlik kabi semiotik belgilar po'lat, temir, tosh, marmar yoki beton kabi materiallar emas, balki, insonning ichki kechinmalarini anglatuvchi ifodalardir. Masalan, *(as) cold as steel* [LERPD, 2005:719]; *(as) hard as iron (shafqatsiz)*; *as cold as a stone (yuraksiz, sovuq)* [LERPD, 2005:725]; *(as) hard as the nether millstone (tegirmontoshi)* [EUPD, 2006: 452] iboralari inson his-tuyg'ularini estetik darajalarini ifodalaydi.

Tahlilga tortilgan manbalarda majoziy ma'noli frazeologik birliklarning struktur tipologiyasini hisobga olgan holda, ikki turi (idiomalar va majoziy) aniqlangan. Rasmiy grammatik tuzilish nuqtai nazaridan, idiomalar orasida nominativ va predikativ shakllanishlar ajralib turadi va semantik mexanizmi jihatidan ular metaforik va metonimik motivli qo'shilmamalardan iboratdir.

Tadqiqotda religionimik komponentli maqollarga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ayni, maqollar o'zida metaforik, snekdoxik, metonimik va boshqa stilistik vositalarni mujassamlashtiradi, aforizmlarda, matallar tarkibida va she'riy matnlarda tahlil qilish zaruratini tug'diradi.

So'nggi paytlarda olimlar religionimik birliklarning o'ziga xos she'riy uslubi, tashqi ko'rinishi va ma'no ifodalanishi kabi ma'lum belgilariga ega ekanligiga e'tibor qaratmoqdalar. Turli tillardagi injilga xos va badiiy matnda uchrovchi


³²Левченко О.П. Фразеологическая символика: лингвокультурологический аспект: монография / О. П. Левченко. – Львов : LRIDU NADU, 2005. – 74 с.

³³ Holy Bible, King James Version (2004 – 2011) Cambridge Edition, Online Bible, by Biblos.com. Available at: <http://kingjibible.com/>

birliklarda ro'y berayotgan fonologik, semantik va sintaktik transformatsiyalar tadqiqi bugunning asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Religionimik birliklar uslubi, konsepsiyasi va lingvistik tahlilini amalga oshirishda she'riy matnda ishlaydigan bir qator stilistik qurilmalariga (alliteratsiya, assonans, konsonans, onomatopeya, ritm, eufoniya, paronomaziya) e'tibor qaratildi. Ular orasida parallelizm, ellips, alliteratsiya, qofiya, metafora, personifikatsiya, paradoks va giperbolalarni eng muhimlari deb ta'kidlash mumkin³⁴.

Religionimik birliklarni tahlil qilish jarayonida nutq muhitining jozibadorligini ta'minlab beruvchi aforizmlarni tahlilga tortdik. Bunday aforizmlar *life, death* yoki, *life and death* komponentlarini qamragan. *Hell, sin, judgment* komponentli aforizmlar ham keng tarqalgan. Bunday aforizmlarning matniy ko'p uchratilishiga sabab insonlarning *hayot* va *o'lim* haqidagi tushunchalar kognitiv struktur shakllanganligidadir. Bu strukturalar "*hayotning ma'nosi*", "*o'limdan keyingi hayot*" yoki "*diniy ta'limotlar*" kabi kategoriyalarni o'z ichiga oladigan mental tafakkuriy qarashlar orqali aniqlanadi. Bunday aforizmlarning aksariyati qarama-qarshi o'qda mavjud bo'lgan leksik birliklar asosida shakllangan.



Ingliz tilida o'lim konseptosferasining manba dominlari (hududi)

Masalan, *Persuasion* is the favorite food of the Illusions of Life and Death/Ishontirish (kimnidir ishontirish) hayot va o'lim illyuziyalarining sevimli taomidir; *What would be the Illusions of Life and Death without persuasion?/Ishontirishsiz hayot va o'lim illyuziyalari qanday bo'lar ed?; Through Persuasion, the illusions of Life and Death allow us to believe that we are free* misollarida ishontirish orqali hayot va o'lim allyuziyalari kishini mazkur konseptosferalar orqali ruhiy ozod ekanligiga ishontiradi.

Yuqoridagi alluziyada *life* hamda *death* religionimik birliklari mantiqiy mutanosiblik kasb etish uchun *persuasion* oti bilan bog'lanadi. Ushbu leksemasiz go'yoki *life* va *death* mantiqan tinglovchi ongiga intensiv ta'sir qila olmaydi. Mazkur alluziyalarda hayot yoki o'limga ishonish *persuasion* leksemasi bilan bog'langan. *Death* komponentli alluziyalarda *arm, justice, truth* leksemalari bilan shakllangan aforizmlar faoldir. Masalan, *The Balance of Justice began to rust once with the receipt of Self-awareness from the cold arms of Death/Adolat muvozanati*

³⁴Barr J. The Semantics of Biblical Language. – Oxford.: Oxford University Press, 1961. – 336 p.; Chilton, P., Kopytowska, M. The Language of Liturgy: A Ritual Poetics. – London: SCM Press, 2018. – 256 p.; Crystal D. The Language of Religion. – London.: Bloomsbury, 2014. – 256 p.; Chilton P. Religion, Language and the Human Mind. – Oxford: Oxford University Press, 2005. – 320 p.; Rowland C. The Open Heaven: A Study of Apocalyptic in Judaism and Early Christianity. – London: SPCK, 1982. – 496 p.


*o'limning sovuq qo'llarini anglash bilan zanglay boshladi*³⁵; *Nothing, can not be more equal to the Absolute Truth on this World, than Death.; Each Horizon has its own justice of the Illusions of Life and Death.;The Day is the Justice of the Night like the Death is the Justice of Life.*

Yuqoridagi misollarda *adolat* muvozanati o'limning sovuq qo'llari bilan anglashilganda zanglay boshlashi orqali, *hayot* va *o'lim* o'rtasidagi nozik munosabatlarni ko'rsatgan. Shuningdek, insonning o'z-o'zini anglash jarayonida o'limning ahamiyatini ta'kidlashdir. **O'lim** *absolute truth* bilan tenglashtirilib, hayotdagi barcha hodisalarning vaqtinchalikligini va o'limning barchani tenglashtiruvchi kuchini ko'rsatadi. Ushbu misollarda *hayot* va *o'lim* alluziyalari har bir *ufq*, *hayot* bo'layotgan hodisalar *o'lim* tufayli o'z adolatini topadi deyilgan.

Fikrimizcha, ushbu matnda *hayot*, *o'lim*, *adolat* va insonning *o'z-o'zini anglash* jarayonidagi murakkabliklar tahlil qilingan.

Religionimik birliklar tahlili mobaynida *death* religionimik birligini *adventure* leksemi muqobili ekanligi aniqlandi. Tadiqiqotda biz o'limni boshqa konsepsiyaga, ya'ni sayohatga nisbatan kontekstual mos ekanligiga amin bo'ldik. Sababi sayohat ontologik xususiyatni nomoyon etib, o'lim nimani anglatishini yetarli darajada tushunish uchun mavhum tushuncha hisoblangan *adventure* bilan taqqoslanadi. Masalan, *the world has no future without death; happiness is a wing of the future bathed in the water of death*³⁶; *between the future and freedom there is only one bridge which is called death*³⁷ va h.k.

Yuqoridagilarga asoslanib *death*ga parallell ravishda quyidagi konseptual manba sohalari mavjud ekanligi aniqlandi.



O'limning konseptosferadagi manba sohalari

Birgina *death* religionimik birligi o'limni ifodalaovchi quyidagi metaforik xususiyatiga ega. Ular *die, croak, pass away, be on heaven, demise, meet one's maker, eternal rest, take away, return to dust, kick the bucket, drop dead, bite the dust, cross the final threshold* kabilar hisoblanib, o'zaro vazifadoshlikga ega. Masalan, *He passed away; A certain person has left the world; He has bid the world bye; Death has taken him away; He has become a passenger to heaven; He (baby) came to the world a dead person; He has travelled on a journey of no return*³⁸.va h.k.

³⁵ <https://www.merriam-webster.com/thesaurus/death>

³⁶ <https://www.merriam-webster.com/thesaurus/water%20of%20death>

³⁷ <https://www.merriam-webster.com/thesaurus/bridge%20of%20death>

³⁸ <https://www.merriam-webster.com/thesaurus/dead%20person>

Tadqiqot ishining “**Ingliz madaniyatida diniy ikonimlikning lingvokognitiv xususiyatlari**” deb nomlangan uchinchi bobi o‘zaro uzviy nazariy bog‘liqlikdagi uchta fasldan tarkib topadi. “*Religionimik metaforalarning ikonimligi, lingvokognitiv xususiyatlari*” deb nomlangan birinchi faslida diniy ikonlar va ramzlar, diniy hikoyalar, qadriyatlar yoki e’tiqodlarni ifodalashda qo‘llaniluvchi, *xoch, yarim oy* va boshqa diniy belgilar o‘ziga xos ma’no ahamiyatga ko‘ra tahlil qilingan.

Ushbu faslda, diniy ikonlik tadqiqi olib borilgan bo‘lib, ikonlik tilning stilistik hamda, lingvokognitiv xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqligi asoslanib, stilistik vositalarga murojaat qilingan. “*Diniy mazmundagi metonimiyalarning lingvokognitiv xususiyatlari*” deb nomlangan ikkinchi faslida diniy ramzlar, ularning xristianlikda tutgan o‘rni, xristianlik tilida, marosimlarida dinning tutgan o‘rni yuzasidan tahlillar amalga oshirilgan. Ushbu bobning uchinchi fasli “*Diniy mazmundagi aforizmlarning lingvokognitiv xususiyatlari*” deb nomlanib, diniy matndagi aforizmlar, ibratli so‘zlar, iboralar va matallar tadqiqiga bag‘ishlangan.

Diniy ikonlar va ramzlar, odatda, diniy hikoyalar, qadriyatlar yoki e’tiqodlarni ifodalashda muhimligi isbotlangan. Masalan, *xoch, yarim oy* yoki boshqa diniy belgilar o‘ziga xos ma’no va ahamiyatga ega. Buning sababi diniy ikonlik tadqiqi tilning stilistik foni bilan chambarchas bog‘liqligidadir. Bu borada stilistik vositalarga murojaat qilish to‘g‘ridir. Xususan, diniy metaforalar – bu diniy tushunchalar va obrazlar orqali ifoda etilgan metaforik ifoda yoki ramzlar bo‘lib, ular nafaqat diniy matnlarda, balki, kundalik til va madaniyatda ham muhim ahamiyatga ega.

Diniy metaforalar quyidagi muhim xususiyatlarga nomoyon qiladi:

1. Diniy metaforalar ko‘pincha *kognitiv metaforalar* sifatida talqin qilinib, ular orqali insonlar mavhum tushunchalarni real hayotdagi voqea hodisalar orqali tasavvur qiladilar. Masalan, “*life is a journey*”³⁹ metaforasi barcha dinlarda uchrab, inson hayotini ma’naviy va jismoniy yo‘l sifatida tasvirlaydi. Inson hayoti davomida turli sinovlar va qiyinchiliklardan o‘tishi va o‘sha yo‘lda to‘g‘ri yo‘ldan adashmaslik kerakligi nomoyon bo‘ladi.

2. Diniy metaforalar ko‘pincha dinning asosiy mavzularini yoritib berishda ahamiyatli. Ular quyidagi mavzularni qamraydi:

a) gunoh va kechirim ko‘pincha *qorong‘ulik* va *nur* kabi metaforalarda ifodalanadi. *Qorong‘ilik* – gunohni, *nur* esa, Xudoning rahmati yoki to‘g‘ri yo‘lni anglatadi. Masalan, *walking in darkness*⁴⁰ ko‘pincha gunoh ichida yashash yoki Xudodan tongan holda adashib yurishni ifodalasa, *stepping into the light*⁴¹ gunohdan yuz o‘girib, Parvardigorning inoyati va kechirimini qabul qilishni anglatadi. Ular ikki o‘qga ajraladi;

b) ba’zi diniy metaforalar orqali voqealarning *zohiriy* va *botiniy* ma’nolari tasvirlanadi. Xristianlikda *water* metaforasi Xudoning rahmati, ruhiy poklanishni ifodalaydi. Masalan, *Baptism by water*⁴² (Matto 3:13-17) nasroniylikning dastlabki

³⁹ https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/journey#google_vignette

⁴⁰ <http://dic.tw/dict/To+walk+in+darkness>

⁴¹ <https://www.amazon.com/Stepping-into-Light-Daniel-Schmelzer-ebook/dp/B07MJ3P84H>

⁴² <https://en.wikipedia.org/wiki/Baptism>

davrlaridan boshlab mavjud bo'lgan amaliyot hisoblanib, Injilda, Masihning o'zi ham suvda bapizm olganligi ta'kidlanadi. Bu, iymonlilar uchun Xudoning buyruqlariga bo'ysunishni va iymonlarini kuchaytirishni anglatadi. *Living water*⁴³ metaforasi Iso Masihni abadiy hayot va ruhiy oziqlanish manbai sifatida tasvirlanib, suvning jismoniy mohiyatidan tashqari chuqur ruhiy ma'noni ifodalashini aks ettiradi.

c) ruhiy kamolot yo'li ko'pincha *toqqa chiqish* yoki *ko'prikdan o'tish* kabi metaforalar orqali tasvirlanadi. Bu orqali insonning ma'naviy jihatdan o'sishi va Parvardigorga yaqinlashuvi tasvirlanadi. Masalan *Climbing the mountain of faith (iymon)*⁴⁴ ruhiy o'sish yo'lini va Xudoga yaqinlashish uchun talab qilinadigan sa'y-harakatni ifodalaydi. *Crossing the bridge to salvation*⁴⁵ metaforasi esa, gunoh yoki ruhiy uzoqlik holatidan qutulishga va Xudo bilan yaqin aloqaga o'tishni ramziy ifodalaydi. Ushbu iboralar ruhiy taraqqiyot jarayonini va ilohiy yaqinlikka intilish yo'lini tasvirlaydi.

3. Diniy metaforalar jamiyatning madaniy hayotida ham muhim ahamiyatga ega⁴⁶.

a) bayramlar va diniy marosimlar ma'lum metaforik tushunchalarga asoslangan. Masalan, Xristianlikda Pasxa (Easter) bayrami Isoning tirilishi sifatida nishonlanadi. Bu bayram o'lim ustidan g'alaba hisoblanib, bu g'alaba haqiqiy jang yoki urush haqida emas, balki, o'limning yakuniyligini yengish, insonlarga abadiy hayot umidini berishini anglatadi. *Victory over death*⁴⁷ yangi hayot va umidni ifodalab, metaforik xususiyatan, Pasxa qorong'ulikdan nurga, o'limdan hayotga o'tishni anglatadi. Bu orqali insonlar gunohlaridan tozalanish va yangi ruhiy hayot boshlash imkoniyatiga ega ekanliklariga ishora qilinadi.

Masih tug'ilgan kun (Christmas) Isoning dunyoga kelishini nishonlaydi va dunyoga nur va najot olib kelgan voqea sifatida qabul qilinadi. Rojdestvo bayrami tasvirida metafora "*Light*", "*Hope*" va "*New life*" kabilar yordamida mavhum ruhiy tushunchalar talqin qilinadi. Mazkur jarayonda "*Light*" metaforasi bilim, haqiqat va ilohiy hidoyatning mavjudligini anglatib, Isoning tug'lishi "*bringing light into the world*" ya'ni dunyoga yorug'lik olib kirish deya tasvirlanadi. Ya'ni uning kelishi jaholat, gunoh yoki umidsizlikni yo'qotish deb qabul qilinadi. "*Hope*" esa, kelajakdagi ijobiylik va najot bilan bog'liq metafora sifatida ishlatiladi. "*New Life*" ruhiy qayta tug'ilish va yangilanishni ifodalaydi. Isoning tug'ilishi insoniyat uchun yangi boshlanishni anglatadi, bu nafaqat jismoniy ma'noda, balki, chuqur ruhiy va abadiy ma'noda najot va tinchlik imkoniyatini taqdim etadi. Muqaddas Ruhning tushishi metaforik ma'noda (*receiving strength and inspiration*) xushxabarni yoyish uchun quvvat olishni ifodalaydi. Shuningdek, bu hodisa *ruhiy yangilanish va birlashish* demakdir. Ingliz madaniyatida bu kabi metaforik obrazlarni uchratish odatidir.

b) diniy metaforalar ingliz adabiyotining turli davrlarida faol bo'lganligini shoh

⁴³ https://en.wikipedia.org/wiki/Living_Water

⁴⁴ https://wau.org/resources/article/climbing_the_mountain_of_the_transfiguration/

⁴⁵ <https://catholicexchange.com/crossing-the-bridge/>

⁴⁶ <http://uniyar.ac.ru>. Аннотации рабочих программ дисциплин (приём 2013-год) (6/6)

⁴⁷ <https://content.scriptureunion.org.uk/wordlive/victory-over-death>

asarlaridan olingan diniy ifodalarda ko‘rdik. Xususan, Anglo Sakson davri ingliz adabiyotining ilk durdona asari “Beowulf” eposida, xristian va butparastlik elementlarini birlashtirgan ko‘plab diniy metaforalar qo‘llanilgan bo‘lib, quyida biz ularning bir nechtasini tahlil qildik:⁴⁸ Ulardan eng mashxurlari quyidagilardir.

“*The Almighty Judge of good deeds and bad*”⁴⁹ [“Beowulf”, Line 180]⁵⁰ - mazkur diniy metafora Xudoni inson amallarining yagona qudratli hakami sifatida tasvirlaydi va xristian dinidagi ilohiy hukm e‘tiqodini aks ettiradi. Leksik tahlil qiladigan bo‘lsak, *Almighty* so‘zi Parvardigorning cheksiz qudratini ifodalaydi, bu xristian ilohiyotida unga nisbatan berilgan asosiy xususiyatdir. *Judge* so‘zining ishlatilishi esa sudyaga o‘xshash metaforani keltiradi, bu Yaratganni inson axloqini baholovchi oliy hakam sifatida tasvirlaydi. Stilistik nuqtai nazardan esa, ushbu metafora jonlantirish san‘atiga teng bo‘lib, bunda ilohiy mavjudotga insoniy sifatlar, xususan, hukm qilish xususiyati beriladi. *Good deeds and bad* o‘rtasidagi qarama-qarshilik axloqiy dixotomiyani yaratadi va she‘rdagi xristian axloqiy tizimini yanada teranroq yoritadi.

Diniy metonimik iboralar tadqiqi mobaynida *The Church says...* misolida cherkov muassasa emas, balki diniy hukm chiqaruvchi jamoa, *The Church forbids this practice* metonimiyasida *church* aslida binoni anglatsada, diniy diskursda u cherkov rasmiylari, ruhoniylar yoki diniy hokimiyatni bildirgan. Metonimiya turiga ko‘ra “INSTITUTION FOR PEOPLE” hisoblanib, uning kognitiv asosida inson ongida “*cherkov*” deganda vazifa bajaruvchi subyekt ya‘ni, *authority* konseptining faollashuvi yotadi. “*The Bible teaches...*” misolida esa, kitob emas, balki, Xudoning kalomi sifatida tushunilgan. Masalan, *The Bible teaches forgiveness* gapida Bibliya qog‘oz va matnlardan iborat fizik obyektidir. Ammo iborada u Xudo kalomi va diniy ta‘limotning mazmuni sifatida nomoyon bo‘lgan. Mazkur misolda CONTAINER FOR CONTENT metonimiyasi faoldir. Bu orqali inson tafakkurida Bibliya shunchaki matn emas, balki *teaching authority* sifatida konseptuallashadi. *He devoted his life to the Word* misolida “*word*” orqali diniy ta‘limot hisoblanib, metonimik mazmun mavjud. Masalan, *He lives according to the Word* misolidagi *word* aslida so‘z degani. Ammo, diniy diskursda u Xudoning vahiyolari, muqaddas ta‘limotni anglatadi. Mazkur misoldagi metonimiya mexanizmi: WORD FOR DIVINE MESSAGE. Uning kognitiv asosini oddiy “*Word*” konsepti muqaddaslik atributi bilan kengayib, *divine authority* bilan birlashadi.

Tadqiqotning to‘rtinchi “**Inglizabon xalqlar madaniyatida religionimik birliklarning injil tili, sakral til va cherkov tilida tutgan o‘rni, diskursiv xususiyatlari**” bobida diskursiv xususiyatlari haqida izlanish bayoni keltiriladi. Ushbu bobning birinchi fasli “*Amerika badiiy matnlarida diniy tilning diskursiv xususiyatlari*” deb nomlanib, unda Amerika badiiy matnlarida diniy tilning diskursiv jihatlarini keng qamrovli masala sifatida baholanib, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishmasida tahlil qilinishi izohlangan. Mazkur masalaning asosiy jihatlarini yoritishda asosan, Amerika adabiyotida ishlatiladigan Injil iboralari, diniy obrazlar va timsollar, ularning mazmuni va kontekstual qo‘llanilishi,

⁴⁸ <http://studbooks.net>. Иудаизм-Религиоведение-Студенческая библиотека онлайн.

⁴⁹ <http://dvusd.org>

⁵⁰ Beowulf by Anonymous. Edited by James H. Ford. El Paso Norte Press, – USA. 2005. – 126 p.

diniy tildan qanday badiiy vosita sifatida foydalanilishi tahlilga tortilgan. Mazkur bobning “*Ingliz religionistik birliklarining lirik xususiyatlari*” deb nomlangan ikkinchi faslida Puritan yozuvchi va shoirlari orasida o‘zining o‘ta taqvodor va chuqur diniy mazmundagi ijod namunalari bilan alohida o‘ringa ega ekanligi xususida amalga oshirilgan tahlillar asosida diniy tilning lirik xususiyatlari ochib berilgan. Qolaversa, she’riyatning diskursiv maqsadi Xudoning ilohiy rahm-shafqati, in’omi va inson ruhiyati bilan o‘zaro aloqasini tushuntirish va ulug‘lash ekanligi asoslangan. Unda Xudo va inson ruhining ilohiy nur orqali birlashishi, she’r insonni Xudoning in’omini qadrlashga, ruhiy yuksaklik va chuqurroq e’tiqodga undashi haqidagi tahlil amalga oshirilgan. To‘rtinchi bobning uchinchi fasli “*Amerika badiiy matnlarida teomorf metaforalarning emotsional ta’siri va tasviriylik xususiyatlari*” deb nomlanib, unda teomorf metaforalar – ilohiylik va inson hayoti o‘rtasidagi ramziy bog‘lanishlarni ifodalashi haqida tahlil olib borilgan. Ushbu bobning eng so‘ngi fasli “*Avstraliya xalqlari madaniyatida diniy frazeologizmlarning kognitiv xususiyatlari*” deb nomlanib, Avstraliya xalqlarining madaniyati-diniy frazeologik birliklar orqali milliy o‘ziga xosligi va tarixiy madaniy rivojlanishini aks ettirishda religionistik birliklarning o‘zida madaniy va diniy tajribalarning sintezini jamlaganligi, adabiyot va til orqali avlodlarga uzatilganligi haqida so‘z borgan.

Amerika adabiyotida diniy til va teomorf metaforalar insonning ichki dunyosi, axloqiy ziddiyatlari va jamiyatdagi o‘rni kabi murakkab tushunchalarni tasvirlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Nataniel Xotorning “Qizil harf” asarida puritan jamiyatining qat’iy qoidalari va insoniy tuyg‘ular o‘rtasidagi keskin qarama-qarshiliklar diniy metaforalar orqali mahorat bilan ifodalangan. Asarda *the hand of God*, *Scarlet letter*, *Rush of sinful thoughts*, *The debt of vengeance* kabi metaforalar inson hayotidagi gunoh, ilohiy adolat va kechirim masalalarini chuqur yoritadi.

Teomorf metaforalar ilohiylik va inson hayoti o‘rtasidagi ramziy bog‘lanishlarni ifoda etadi. Masalan, *the poison of sin* metaforasi gunohning zararli va halokatli ta’sirini anglatib, inson ruhiyatidagi zaharli oqibatlarni tasvirlaydi. *Celestial guardianship* kabi iboralar esa, puritanlarning Xudoning maxsus nazorati ostida ekanligi haqidagi e’tiqodini aks ettiradi.

Xotorning metaforalari *gunohkorlik*, *kechirim* va *insoniy vijdon* kabi universal savollarga murojaat qilib, adabiy va diniy diskurs o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Metaforalar orqali u jamiyatning ikkiyuzlamachiligi, insonning ichki ziddiyatlari va ma’naviy yuksalish jarayonlarini nozik va chuqur tahlil qiladi.

Avstraliya adabiyotining barcha bosqichlarida diniy frazeologik birliklar xalqning diniy tajribasi va madaniyatini ifodalash uchun ishlatilgan. “Tikanzordagi sayroqi qushlar” romani bu jihatlarni aniq aks ettiruvchi namunadir. Ushbu birliklar adabiyotda qahramonlarning ruhiy kurashi, diniy marosimlar va e’tiqodlarning ta’sirini ochib beradi. Misol sifatida, “*God in His heaven smiles*”, “*Bride of Christ*”, “*Faith of Our Fathers*”, va “*Spawn of the Devil*” kabi iboralar diniy va ma’naviy mazmuni chuqur tasvirlaydi. Avstraliya xalqlarining lingvomadaniyati diniy frazeologik birliklar orqali milliy o‘ziga xoslikni va tarixiy madaniy rivojlanishini aks ettiradi. Bu birliklar o‘zida madaniy va diniy tajribalarning sintezini jamlagan bo‘lib, adabiyot va til orqali avlodlarga uzatilmogda.

XULOSA

1. Religionimik birliklarning aniq ta'riflari berib, semantik ma'nolari izohlangan. Ingliz tiliga xos religionimik birliklarning stilistik, lingvostilistik hamda semantik-emotsional xususiyatlarini o'rganish orqali konseptual tahlil amalga oshirilib, ularning til muhitidagi o'rni aniqlangan. Shuningdek, diniy ruhdagi badiiy matnlar va nutqlarda qo'llaniluvchi stilistik qurilmalarning shakllanishi hamda o'ziga xos xususiyatlari ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlar badiiy diskursida rasmiy va norasmiy xususiyatlarda namoyon bo'lishi isbotlangan.

2. Religionimik birliklarning xususiy va umumiy ma'nolari aniqlanib, madaniy kontekstdagi o'rni tahlil qilingan. Ingliz injil iboralarining badiiy asarlardagi stilistik tahlili amaga oshirilib, diniy matnlarning kishi ongiga ma'naviy va estetik ta'sir ko'rsatishi darajalari aniqlangan. Bunday stilistik vositalar tahlilini amalga oshirish injil iboralarining inglizzabon badiiy nutqida yetakchi o'rinda ekanligi isbotlangan.

3. Ingliz religionimik birliklarning asosiy manbai hisoblangan *anglikanizm*, *katolik* va *protestantlik* kabi diniy idora tillari madaniy va tarixiy kontekstlarda tahlilga tortilgan. Anglikanizm cherkovining an'anaviy va reformist elementlarini birlashtirishi, katolik - *Xudo*, *Iso Masih* va *Muqaddas Ruhga* bo'lgan e'tiqod bilan birga, muqaddas an'analarga va ularning intervensiyasiga ishonch tuyg'usi bilan sug'orilganligi, *protestantlik* esa, marosimlarga nisbatan tanqidiy yondashishi va ibodatlar ko'proq sodda va shaxsiy bo'lishini afzal ko'rishi, mazkur soha tilida qo'llaniluvchi stilistik vositalar uslubiy elementga egaligi, til vositalarining badiiy matnlarda ishlatilishi stilistik vositalar yordamida tahlil qilinib, protestantlik madaniyatida qo'llaniluvchi religionimlarning stilistik bo'yoqdorligi badiiy matn asosini tashkil etishi asoslangan.

4. Religionimik ikonlarning semiotik belgilari orqali qanday tarzda ongda kognitiv jarayonlarda ishtiroki amalga oshirilishi tahlil qilinib, ikonlik nuqtai nazaridan, diniy belgilarning vizual ko'rinishi, ma'no xususiyatlari diniy belgilar orqali shakllanishi isbotlangan, diniy metaforalarning ikonlikga ko'ra farqlanishi tahlil qilinib, kognitiv xususiyatlari *rang-tus*, *mehr-muhabbat* va *qahr-g'azab* tuyg'ulari asosida shakllanishi badiiy matn tahlili asnosida ochib berilgan.

5. Religionimik metonimiyalarning ikonlik xususiyatlari tahlil qilinib, ularning kontekstda ishlatilishi va kognitiv funksiyalari ilohiy belgilar asosida ekanligi dalillangan, metonimik diniy tilning murakkabligi va uning kommunikativ funksiyalarini o'rganish, religionimik ruhdagi badiiy matnning kishi ongiga to'g'ri va aniq yetib borishi badiiy matnning funksional tahlili bilan asoslangan.

6. Religionimik birliklarni pragmatik fenomen sifatida o'rganish orqali diniy iboralar va belgilar insonlar o'rtasidagi kommunikativ jarayonlarni, milliy-madaniy identivlikni va ijtimoiy o'zgarishlarni yanada chuqurroq tushunishga imkon berishi isbotlangan. Dinning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati kvantitativ usul orqali lingvopragmatik tahlil qilish bilan religionimik birliklarning milliy identivlik va ijtimoiy o'zgarishlarning markaziy elementi ekanligi dalillangan.

7. Religionimik birliklarning xususiy va umumiy ma'nolarini aniqlash orqali ularning madaniy kontekstdagi o'rni, ingliz Injil iboralarining badiiy matnlar va

asarlardagi stilistik xususiyatlari diniy matnlarning kishi ongiga ma'naviy va estetik ta'sir ko'rsatish darajalarini belgilash uchun asosiy omillar sirasiga kiradi. Uslubiy stilistik tahlili amalga oshirish bilan injil iboralarining ingliz tili badiiy nutqida yetakchi o'rindadir.

8. Religionimik birliklarning barcha turlari, xususan, ingliz religionimik birliklarining asosiy manbai hisoblangan anglikanizm, katolik va protestantlik kabi diniy idora tillari madaniy va tarixiy kontekstlarda tahlili shuni ko'rsatadiki, anglikanizm cherkovining an'anaviy va reformist elementlarini birlashtiradi va ikki mazhabning farqlanishi quyidagicha izohlanadi: katolik - Xudo, Iso Masih va Muqaddas Ruhga bo'lgan e'tiqod bilan birga, muqaddas an'analarga va ularning intervensiyasiga ishonch tuyg'usi bilan, protestant esa marosimlarga nisbatan tanqidiy yondashishi va ibodatlar ko'proq sodda va shaxsiy bo'lishini afzal ko'rishi stilistik vositalar yordamida uslubiy elementlari til vositalarinining badiiy matnlarida ishlatiladi va katolik madaniyatida qo'llaniluvchi religionimlarning stilistik bo'yoqdorligi badiiy matn asosini tashkil etadi.

9. Religionimik ikonalar va ularning semiotik belgilari orqali qanday qilib kognitiv jarayonlar amalga oshirilishi tahlili asosida ikonimlik nuqtai nazaridan, diniy belgilarning vizual ko'rinishi va ularning ma'no xususiyatlari diniy belgilar orqali shakllanishini diniy metaforalarning ikonimlik nuqtai nazardan farqlanishi, kognitiv xususiyatlari rang-tus va mehr-muhabbat hamda qahr-g'azab tuyg'ulari asosida voqelanadi.

10. Religionimli metonimiyalar va ularning ikonlik xususiyatlari, uning kontekstda ishlatilishi va kognitiv funksiyalari ilohiy belgilari, metonimik diniy tilning murakkabligi va uning kommunikativ funksiyalarini o'rganish religionimik ruhdagi badiiy matnning kishi ongiga to'g'ri va aniq yetib borishi badiiy matnning funksional tahlili mobaynida aniqlanadi.

11. Religionimik birliklarni pragmatik fenomen sifatida o'rganish diniy iboralar va belgilar insonlar o'rtasidagi kommunikativ jarayonlarni, milliy-madaniy identivlikni va ijtimoiy o'zgarishlarni yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi. Dinning zamonaviy jamiyatdagi o'rni va ahamiyati kvantitativ usul orqali lingvopragmatik tahlil qilish bilan religionimlarning milliy identivlik va ijtimoiy o'zgarishlarning markaziy elementi ekanligi ma'lum.

12. Religionim tushunchasi va uning filologik konteksti, shuningdek, religionimik birliklarning tipologiyasi va klassifikatsiyasi tushunchaning mohiyatini anglashga va religionimik birliklar, tilshunoslikda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning tahlili tilning evolyutsiyasini va madaniy kontekstini tushunishga yordam beradi. Ingliz tilidagi religionimik bitliklarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning semantik va sintaktik strukturalari orqali aniqlanadi.

13. Religionimik birliklarning funksional vazifasi, ular va tilning ma'naviy, estetik va kommunikativ jihatlari bilan bog'liqligi tahlili shuni ko'rsatadiki, religionimlar, o'z navbatida, tilning evolyutsiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, sotsial va siyosiy madaniyat kontekstida o'zgaruvchanlikni aks ettiradi. Ingliz tilidagi religionimik birliklar va ularning semantik strukturasining tahlili, ularning ma'nosini va ishlatilishini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

14. Diniy ikonimlik kognitiv xususiyatlarga ko'ra tahlil qilinib *metaforik*,

strukturaviy, takroriy, sintaktik, semantik, pragmatik, fonetik, miqdoriy, takroriy kabi turlarga ajratilgan. Religionimik metaforalarning ikonimligi kognitiv simantikada jarayonida ondan tilga ko‘chishi diniy aforizmlar misolida tahlil qilinib, kognitiv jarayon lisoniy kognitiv xususiyatlarining alohida tamoyillarida nomoyon bo‘lishi aniqlangan. Jarayon, diniy til tabiati va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni interdisiplinar yondoshuvlar arorida yuzaga chiqarishi isbotlangan.

15. The role of religionomic units in the cultures of American and Australian societies, as well as their discursive and cognitive characteristics, has been analyzed in terms of the functional capacities of religious language through the framework of locutionary, illocutionary, and perlocutionary speech acts. The lyrical features of English religionomic units and the emotional impact of theomorphic metaphors in literary texts have been examined based on a range of aspects, *including emotional appeal, the “self” concept within religionomic expressions, imagery in poetry, psychologism, and implicativity*. Furthermore, it has been substantiated that the study of the linguo-cognitive characteristics of religious phraseological units and aphorisms in Australian culture holds significant importance.

**SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 AWARDED
SCIENTIFIC DEGREES AT BUKHARA STATE UNIVERSITY**

BUKHARA STATE UNIVERSITY

ESHMURADOVA DILDOR URALOVNA

**FUNCTIONAL STYLISTIC FEATURES OF ENGLISH RELIGIONOMIC
UNITS**

10.00.064– Language and literature of the people of Europe, America and Australia

**DISSERTATION ABSTRACT
for a Doctor of Science (DSc) in PHILOLOGY**

Bukhara – 2026

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована под номером №B2025.1.DSc/Fil934 в Высшей аттестационной комиссии.

Докторская диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, английском, русском (резюме)) размещён на веб-странице Научного Совета (www.buxdu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).


Научный консультант:	Гадоева Мавлюда Ибрагимовна доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Хаджиева Феруза Мельсовна доктор филологических наук, профессор Ахмедов Ойбек Сапорбаевич доктор филологических наук, профессор Шарипова Азиза Абдуманаловна доктор филологических наук, профессор
Ведущая организация:	Джизакский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится « 16 » июня 2026 г. в 11³⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08. при Бухарском государственном университете. (Адрес: 200118, город Бухара, улица М.Икбол, 11. Тел.: +99865221-29-14; факс: +99865221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрировано за № 1/2374). (Адрес: 200118, город Бухара, улица М.Икбол, 11. Тел.: +99865221-25-87.)

Автореферат диссертации разослан « 3 » июня 2026 года.

(Протокол рассылки за № 26-11 от « 3 » июня 2026 года).



Д.И.Ходжаева
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, доцент

О.О.Бобокалонов
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по филологическим наукам, доцент

О.М.Файзуллаев
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

INTRODUCTION (dissertation abstract for a Doctor of Science [DSc])

Topicality and necessity of the thesis. In world linguistics, scientific research in the field of onomatology, which has been formed as a separate field since the second half of the 20th century, has reached a new stage. In this process, conducting a holistic analysis of religionymic units, which constitute a significant share of onyms and represent the product of the integration of linguistics and religion, is of great importance. On this basis, the study of various aspects of religionymic units, the interpretation of their morphological, syntactic, and stylistic features, including the disclosure of linguistic and lexico-semantic properties of religionyms, the identification of their stylistic features, the study of the influence of religious units, which form an integral part of the cultural heritage of peoples and nations, on society as a means of ensuring social stability and peace in different societies over time, as well as their contribution to fostering religious tolerance, allows us to understand and scientifically substantiate the important role these units play in the formation of culture and nationality.

In world linguistics, since the final years of the last century, in order to fill the ideological void in society, the promotion of religious language, as well as conducting analysis of the processes of religious speech and communication within the theolinguistics framework, analysis of the formation of religious rites, prayers, other religious practices, traditions and teachings along with studying important aspects of language and linguistics have become possible. Revealing the aspects of theolinguistics related to linguistic anthropology, studying its universal and specific cultural features related to language and culture, remain as one of the important issues that contemporary linguists face. After all, the improvement of religious knowledge serves to expand the scope of studies on religionyms, which are the language of different religions, the study of literature that embodies imagery in religion, religious ontology, religious thinking and religious education encapsulating all mentioned notions, its uniqueness, religious texts or concepts rooted in the consciousness of the nation for centuries.

At the present time, when special attention is paid to the development of science and education in our country, one of the main tasks is defined as “creating the necessary environment and conditions for the wide promotion of the rich history of our country, its unique culture and national values among young people, as well as conveying the achievements of world science and literature to them.”¹ As a result, the study of the stylistic and functional features of religionymic units helps to understand how the relationship between people, social norms and values are formed, how language is used in a religious context and what role it plays in communication, how it contributes in understanding cultural relations between different peoples and communities, and the development of new ideas and theories. Therefore, the study of religionyms is important not only from an academic, but also from a social and cultural perspectives, and through such research, we gain a deeper understanding of religion, which is one of the central elements of world

